



## TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI YUQORI TASHKILY DARAJADA O‘TKAZILISHI BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga navbatdagi Toshkent xalqaro investitsiya forumiga tayyorgarlik yuzasidan axborot berildi.

Ushbu forum mamlakatimizning investitsiyaviy salohiyatini keng namoyon etish, xorijiy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli loyihalarni shakllantirish va ilgari surish uchun muhim xalqaro maydonga aylangan.

2022-yilda ilk bor o‘tkazilgan forumda 56 mamlakatdan 1 mingdan ziyod xorijiy mehmon ishtirok etgan edi. Bu yil 16-18-iyun kunlari bo‘lib o‘tadigan beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida 99 ta mamlakatdan jami 8 mingdan ziyod ishtirokchi, jumladan, qariyb 3,1 ming nafar xorijiy mehmon qatnashishi kutilmoqda.

Tadbirga taklif etilganlar orasida xorijiy davlatlar hukumatlari rahbarlari va vakillari, nufuzli xalqaro moliya institutlari, yirik kompaniyalar, investitsiya jamg‘armalari va ishbiarmon doiralari rahbarlari bor.

Taqdimotda forum va uning doirasida o‘tkaziladigan tadbirlar dasturi haqida ma‘lumot berildi. Xususan, yalpi majlis, ikki tomonlama uchrashuvlar, tarmoq va hududlar taqdimotlari, investitsiya kelishuvlarini imzolash marosimlari hamda ishbiarmonlar muloqotlari o‘tkaziladi.

O‘zbekistonning investitsiya salohiyatini namoyish etish ko‘rgazmasida qishloq xo‘jaligi, yengil sanoat, geologiya, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik, kimyo sanoati, energetika, sun‘iy intellekt va axborot texnologiyalari tarmoqlarining imkoniyatlari taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Forum doirasida Prezidentimiz huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yalpi majlisi ham bo‘lib o‘tadi. Unda mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada

yaxshilash, sanoat-texnologik va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, xususiy sektor va xalqaro investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish masalalari muhokama qilinadi.

Joriy yilgi forumda ham investitsiya kelishuvlarining yirik to‘plamini imzolash rejalashtirilgan. Hozirda yangi loyihalarni shakllantirish ishlari jadal ketmoqda.

Ishlab chiqilayotgan kelishuvlar kimyo sanoati, geologiya va metallurgiya, yengil sanoat, elektrotexnika va mashinasozlik, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, qurilish materiallari, energetika va ekologiya, raqamli texnologiyalar, qurilish va infratuzilma, bank-moliya, transport-logistika, turizm hamda ta‘lim kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Mazkur loyihalarning amalga oshirilishi yangi ish o‘rinlari yaratish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari forumni yuqori tashkiliy darajada o‘tkazish, har bir tarmoq va hududning investitsiyaviy salohiyatini aniq loyihalar orqali namoyon etish muhimligini ta‘kidladi.

Mutasaddilarga xorijiy mehmonlarni kutib olish, tadbirlar dasturini puxta tashkil qilish, imzolagan kelishuvlarning aniq ijro mexanizmlarini belgilash va forumdan keyin ularni tizimli monitoring qilib borish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘ZA

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

### SUDLARDA KOMPLAYENS NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Aholining sud himoyasida bo‘lish kafolatlarini yanada kuchaytirish, sudlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning professional tizimini joriy etish, shuningdek, sud tizimida 2026-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha e‘lon qilingan **“favqulodda holat”** dan kelib chiqqan vazifalarning samarali va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida **qaror qilaman:**

#### I. Maqsadlar

1. Quyidagilar mazkur Farmonning asosiy maqsadlari etib belgilansin:

a) sudlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash, zamonaviy **komplayens nazorat tizimini** joriy etish orqali korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni barqavat bartaraf etish;

b) sud apparati xodimlarini ishga qabul qilish jarayonini **shaffof tartib-taomillar** va **ochiq tanlovga** asoslangan tarzda tashkil etish, ularning salohiyati, iqtidori, kasbiy sifatlarini hamda alohida xizmatlarini odilona va haqqoniy baholash (**meritokratiya**) asosida kasbiy o‘stirish;

d) sud tizimiga **jamoatchilik ishonchini mustahkamlash** va sudning nufuzi va obro‘sinini oshirish, sud organlarini Yangi O‘zbekistonda barpo etish yo‘lidagi islohotlarni ko‘makchisiga aylantirish.

#### II. Sud apparati xodimlari orasida korrupsiyaning oldini olish

2. Oliy sudning quyidagi taksirlari ma‘qullansin:

a) sud tizimining mavjud boshqaruv shtat birliklari doirasida sud apparati xodimlari orasida korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan, manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash va tartibga solish uchun mas‘ul bo‘lgan **Komplayens nazorat xizmatini** tashkil etish;

b) sud apparati xodimlari kasb mas‘uliyatini yanada chuqur his etishlari maqsadida mansab darajasiga ega bo‘lgan sud apparati xodimlari uchun **ixtisoslashgan xizmat kiyimini** joriy etish.

3. Belgilansinki, sud tizimida korrupsiyaning oldini olish:

a) sudyalarning korpusiga nisbatan — Sudyalarning oliy kengashining Sudyalarning daxlsizligini ta‘minlash va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha sud inspeksiyasi tomonidan;

b) sud apparati, shu jumladan, Sudlar faoliyatini ta‘minlash departamenti xodimlariga nisbatan — Oliy sudning **Komplayens nazorat xizmati** tomonidan amalga oshiriladi.

4. Quyidagilar Komplayens nazorat xizmatining **asosiy vazifalari** etib belgilansin:

a) sud apparati faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish choralari ko‘rish;

b) sud apparati xodimlari tomonidan kasb etikasi va qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini **monitoring qilish**, korrupsiya va sud tizimi obro‘sigga putur yetkazuvchi boshqa holatlarning oldini olish;

d) sud apparatiga ishga qabul qilish jarayonlarida shaffoflik va xolislikni ta‘minlash choralari ko‘rish, shuningdek, belgilangan tartibda sud apparati lavozimlariga nomzodlarni korrupsiyaga qarshi tekshiruvdan o‘tkazish va xulosa berish;

e) sud apparati xodimlarida korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning **bu boradagi bilim va ko‘nikmalari uzluksiz oshirib borilishini** muvofiqlashtirish;

f) sud apparati xodimlari, ular oila a‘zolarining (turmush o‘rtog‘i va voyaga yetmagan farzandlari) daromadlari va mol-mulki, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini **deklaratsiya qilish tizimlarini** ishga tushirish hamda yuritish, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik holatlariga yo‘l qo‘ymaslik;

g) xalqaro standartlar asosida korrupsiya holatlari haqida **xabar bergan xodimlarni himoya qilish** va rag‘batlantirish, pora taklif etish holatlari haqida xodim tomonidan xabar berish tizimi, shuningdek, fuqarolar uchun **xavfsiz aloqa kanallarini** joriy etish;

h) qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

5. Quyidagilar:

a) Oliy sudning apparatida Oliy sud raisiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘ysunuvchi 3 ta shtat birligidan iborat **Komplayens nazorat xizmati** tashkil etilsin;

b) O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida Komplayens nazorat xizmatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘ysunadigan jami 15 ta shtat birligidan iborat **komplayens nazorat bo‘yicha inspektor lavozimlari** joriy etilsin.

Davomi 2-beta

## TOG‘-KON SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRARISH VA MEHNAT RESURSLARI SAMARADORLIGI OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev tog‘-kon sanoati hamda geologiya sohasida raqamli va sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tog‘-kon sanoati va geologiya tarmog‘i muhim o‘rin tutadi. 2025-yilda jami sanoat mahsulotining 20 foizi ushbu soha korxonalariga hissasiga to‘g‘ri keldi. Ularning byudjetga tushumlari 118,5 trillion so‘mni tashkil etdi.

Shu bois, sohani texnologik transformatsiya qilish, ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, zamonaviy raqamli yechimlarni keng tatbiq etish iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash, investitsiyalarni ko‘paytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda “barqaror rivojlanish” va “raqamli geologiya” konsepsiyalari jadal rivojlanmoqda. Mamlakatimizda ham bu borada muayyan ishlar amalga oshirilgan. Xususan, 2025-yilda yirik tog‘-kon sanoati korxonalarida 7,3 trillion so‘m operatsion xarajatlar tejali, mahsulot tanarxi 9,1 foizga kamaygan.

Shuningdek, “Geomonitoring” axborot tizimi joriy qilinib, 2 mingdan ortiq qazilma uchastkalariga oid ma‘lumotlar raqamlashtirilgan.

Kelgusi besh yilda oltin zaxirasini qo‘shimcha 879 tonnaga, kumushni

510 tonnaga, misni 676 ming tonnaga oshirish bo‘yicha ishlar boshlangani qayd etildi.

Sun‘iy intellekt texnologiyalari geologik ma‘lumotlarni tezkor tahlil qilish, qazilma boyliklarni prognozlash, zaxiralarni aniq hisoblash va burg‘ilash ishlari samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu maqsadda geologiya-qidiruv jarayonlarining barcha bosqichlariga sun‘iy intellekt yechimlarini joriy etish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz buning uchun sohada texnologik transformatsiyani yangi bosqichga olib chiqish, ishlab chiqarish jarayonlarini sun‘iy intellekt yordamida boshqarish va tahlil qilish tizimini shakllantirish zarurligini ta‘kidladi.

Tog‘-kon sanoati va geologiyada xaritalar, qidiruv natijalari, burg‘ilash ma‘lumotlari, laboratoriya tahlillari va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari kabi juda katta hajmdagi ma‘lumotlar shakllanadi. Ularni yagona elektron bazaga jamlash, tezkor qidirish va 3D modellar orqali tahlil qilish yangi konlarni aniqlash imkoniyatini oshiradi.

Buning natijasida tanarxni 10 foizga kamaytirish, yangi konlarni ochish muddatini

2 karra qisqartirish, investorlarga taqdim etiladigan takliflar sonini 4 barobar oshirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi.

Taqdimotda 2030-yilgacha geologiya va tog‘-kon sanoatiga 30 milliard dollardan ortiq investitsiya jalb qilish maqsad qilingani ta‘kidlandi. Buning uchun, avvalo, investorlar talab qilayotgan sifatli va ishonchli raqamli ma‘lumotlar bazasini shakllantirish zarur.

Shu munosabat bilan Geologik ma‘lumotlar milliy bazasini yaratish taklif qilindi. Mazkur jarayonda “Texnologik transformatsiya markazi” tashkil etilib, mavjud 36 mingdan ortiq hisobotlar va birlamchi ma‘lumotlar raqamli ko‘rinishga o‘tkaziladi. Natijada geologik ma‘lumotlarni shakllantirish, konlarni modellashtirish va zaxiralarni hisoblash jarayoni 2 karra tezlashadi.

Taqdimotda 2026-2030-yillarda geologiya sohasida hamda 6 ta yirik korxonaga — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”, “Navoiyuran”, “O‘zmetkombinat”, “O‘zbekkoko‘mir” hamda “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati”da sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha jami 44

ta loyihani amalga oshirish rejalari haqida axborot berildi.

Ushbu loyihalar besh asosiy yo‘nalishni qamrab oladi: ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, korporativ boshqaruvni raqamlashtirish, sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, mehnat va sanoat xavfsizligini ta‘minlash hamda kon-geologiya ishlarni raqamli transformatsiya qilish.

Loyihalarni amalga oshirish natijasida operatsion samaradorlik 7 foizga, texnika va uskunalar ishonchligi 20 foizga, energiya samaradorligi esa 8 foizga oshishi kutilmoqda. Shuningdek, inson omili bilan bog‘liq xato va xavflar 15 foizga kamayishi mumkin.

Keyinchalik ushbu yechimlarni patentlash zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Mutasaddilarga tog‘-kon sanoati korxonalarini biznes-rejalarni tuzishda ishlab chiqarish va mehnat resurslari samaradorligini oshirishga oid chora-tadbirlarni kiritish, texnologik va sun‘iy intellekt loyihalari bo‘yicha alohida dasturlarni tasdiqlab borish topshirildi.

O‘ZA

## O‘ZBEKISTON – ROSSIYA HAMKORLIGINING YANGI UFQLARI

Prezidentimizning 29-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumida ishtirok etish uchun Sankt-Peterburg shahriga tashrif O‘zbekiston — Rossiya strategik sherikligini rivojlantirish va Yevroosiyaning yangi iqtisodiy kun tartibini shakllantirishda muhim voqea bo‘ldi. Jahon iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o‘zgarishlar kechayotgan hozirgi sharoitda Peterburg xalqaro iqtisodiy forumi nafaqat ishbiarmonlik muloqoti maydoni, balki savdo, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi, raqamlashtirish, kadrlar tayyorlash va inson kapitalini rivojlantirish sohaslarida amaliy yechimlar ishlab chiqiladigan muhim platformadir.



### Nuqtayi nazar

Forumning “Pragmatik muloqot — barqaror kelajak sari yo‘l” shiori ostida o‘tgan ham ramziy ma‘noga ega. Bu g‘o‘ya yangi O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati mazmuniga to‘la mos keladi. Pragmatik muloqot deklarativ bayonotlarni emas, balki ishonch, o‘zaro manfaatdorlik va amaliy natijaga asoslangan aniq yechimlarni anglatadi. Bugun O‘zbekistonning

Rossiya va boshqa strategik sheriklar bilan munosabatlarini aynan ana shunday yondashuv belgilab bermoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi zamonaviy dunyo chuqur qayta qurilish davriga kirganini ta‘kidladi. Darhaqiqat, transport yo‘laklari o‘zgarimoqda, yangi ishlab chiqarish zanjirlari shakllanmoqda, raqamli platformalar, sun‘iy intellekt, logistika, energetika xavfsizligi va texnologik suverenitetning ahamiyati ortib bormoqda.

Davomi 4-beta

## IJOD UCHUN ENG YAXSHI VAQT – HOZIR!

Qaysi mamlakat adabiyot va madaniyatga e‘tibor bersa, kelajagi mustahkam bo‘ladi. Qaysi jamiyat ijod va san‘atni qadrlasa, o‘sha xalqning ma‘naviy immuniteti kuchli bo‘ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti



### Birlashsak – katta kuchmiz

ijodkorlarning mukofotlanishi ixtisoslashgan xizmat ibrat namunasi. Prezidentimizning insonparvar siyosati natijasida an‘ana tusiga kirgan bunday olijanob yondashuv yangi O‘zbekiston chinakamiga inson qadr-

qimmatli ulug‘lanadigan ijtimoiy davlat ekanini amalda isbotlamoqda.

Ijodning e‘tirofi ijodkorning o‘zi bilan birga yaqinlari, avlodlari va mahallasidagilarga ham faxr bag‘ishlaydi. Bunda katta ma‘naviy

rag‘bat bor. Ayniqsa, marhum ijodkorlarning mukofotlanishi butun boshli sulolaga va uning davomchilariga berilgan e‘tirof hamdir.

Davomi 3-beta

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

# SUDLARDA KOMPLAYENS NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

**Boshlanishi 1-betda**

6. Belgilansinki:

a) Komplayens nazorat xizmati rahbari Oliy sud raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda mehnatga haq to'lash, moddiy ta'minot va ijtimoiy himoya shartlari bo'yicha Oliy sud departament boshlig'iga tenglashtiriladi;

b) komplayens nazorat bo'yicha inspektorlar Harbiy sud, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida joylashtiriladi;

c) Komplayens nazorat xizmati lavozimlariga halol, pok va benuson obro'-e'tiborga ega bo'lgan oliy yuridik ma'lumotli, shuningdek, qoida tariqasida, sud-huquq sohasida kamida 5 yillik ish tajriga ega nomzodlar tayinlanadi;

d) Oliy sud raisiga Komplayens nazorat xizmati xodimlariga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda qo'shimcha ustamalar to'lash huquqi beriladi;

e) Komplayens nazorat xizmati xodimlariga yuklatilgan vazifalar doirasida sud apparati xodimlarining olib-avlati hamda xizmat vaqtida va xizmatdan tashqari holatlarda o'zini tutishi, umuma'tirof etilgan olib-avlati qoidalarga rioya etishi bilan bog'liq masalalarda xizmat tekshiruvlarini o'tkazish vakolati beriladi.

7. Oliy sud:

a) 2026-yil 1-sentabrga qadar sud apparati faoliyatida korruptsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi

va sud apparatidagi korruptsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini tasdiqlasin;

b) 2027-yil 1-martga qadar sud apparati xodimlarining korruptsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori bo'lgan vazifa va funksiyalarini raqamlashtirish, ularni amalga oshirishda inson omilini kamaytirish choralari ko'rsin.

8. Oliy sud uch oy muddatda sud apparati xodimlarini ishga qabul qilish va ularning mehnat faoliyatini bilan bog'liq cheklolarni belgilovchi nizomni o'rnatilgan tartibda tasdiqlasin. Nizomda quyidagilarga nisbatan cheklolvarlar nazarda tutilsin:

a) muqaddam korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxslarni ishga qabul qilish;

b) notarius, advokat, sudya, huquqni muhofaza qiluvchi yoki boshqa davlat organi faoliyatida nojo'ya xatti-harakatlari uchun lavozimdan bo'shatilgan shaxslarni uch yil mobaynida ishga qabul qilish;

c) pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanish;

d) tadbirkorlik subyektni ta'xis etish, unda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajarish (bundan aksiyadorlik jamiyatlarini erkin muomalada bo'lgan aksiyalariga qonunchilikda belgilangan talablar doirasida egalik qilish hollari mustasno);

e) o'z xizmat vazifalarini siyosiy partiyalar, boshqa jamoa birlashmalari, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini ko'zlab bajarish;

f) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida hisobvaraqlar ochish va ularga ega bo'lish, ko'chmas mulk va boshqa mol-mulkka egalik qilish.

9. Oliy sudning HR-menejment mexanizmlaridan keng foydalangan holda sudlar apparatining kadrlarini boshqarish va nazorat qilishning samarali hamda zamonaviy tizimini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin. Unga ko'ra 2026-yil yakuniga qadar:

a) nomzodlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini, shu jumladan, ularning ma'naviy-axloqiy va halollik sifatlarini haqqoniy baholash imkonini beruvchi ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish tizimini joriy etish. Bunda malakali kadrlarni jalb etish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy usullaridan keng foydalanishni nazarda tutish;

b) inson resurslarini boshqarish va rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellektdan foydalangan holda vakant lavozimlarni e'lon qilish, nomzodlarni saralash, tanlash va ishga qabul qilish jarayonlarini raqamlashtirishga mo'ljallangan "vacancy.sud.uz" portali hamda sud tizimida xodimlar bilan ishlash va kadrlar ma'murchiligining zamonaviy usulbarini joriy etishga qaratilgan "SudHR" elektron platformasini ishlab chiqish va ishga tushirish;

c) zamonaviy usullardan foydalangan holda sud apparati xodimlarining kasbiy mahorati va kasb bilan bog'liq chiqarilarga bardoshlilik, ahillik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, yangiliklarga moslashishga qodir jamoani shakllantirish;

d) sudlarga oliy yuridik ma'lumot va ilmiy salohiyatga ega bo'lgan kadrlarni jalb qilishda respublikaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamda Boshqaruv samaradorligi agentligi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ta'minlansin.

10. Oliy sud ikki oy muddatda Oliy sud va quyi sudlar tuzilmasini belgilangan shtat birliklari doirasida mustaqil tasdiqlash

huquqini Oliy sud raisiga berishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini kiritish.

III. Sudyalor korpusida korruptsiyaga murossasizlikni shakllantirish

11. Sudyalor oliy kengashi va Boshqaruv samaradorligi agentligining quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflari ma'qullansin:

a) Odil sudlov akademiyasi va Boshqaruv samaradorligi agentligi huzuridagi Rahbar kadrlarni baholash markazining moddiy-texnik bazasi va ilmiy-amaliy resurslaridan foydalangan holda 2026-yil yakuniga qadar sud tizimida korruptsiyaga qarshi barqarorlik darajasini diagnostikadan o'tkazish;

b) Odil sudlov akademiyasida nomzodlarni sudyalik kasbiga tayyorlashda qo'shimcha ravishda shaxsiy-professional va korruptsiyaga qarshi barqarorlik darajasini diagnostikadan o'tkazish amaliyotini joriy etish.

12. Oliy sud uch oy muddatda sud ishlarini avtomatik taqsimlash dasturini yanada takomillashtirish choralari ko'rsin. Bunda:

a) ishlarni taqsimlash va qayta taqsimlash mezonlarining tugal asoslarini belgilash, mazkur jarayonlar shaffofligini ta'minlash;

b) ishini bir sudyadan boshqa sudyaga assosiz ravishda o'tkazish holatlarining oldini olish nazarda tutilsin.

13. Sudyalor oliy kengashi 2026-yil sentabrga qadar Odil sudlov akademiyasida sudyalor va sud apparati xodimlari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi va korruptsiyaning boshqa ko'rinishlarining oldini olish bo'yicha "real keyslar"ga asoslangan o'quv-amaliy modulini joriy etsin.

14. Sudyalor oliy kengashi:

a) 2026-yil 1-sentabrga qadar Odil sudlov akademiyasida mavjud boshqaruv shtat birliklari doirasida ichki xavfsizlik nazorati xizmatini tashkil etish;

b) 2027-yil 1-iyungacha qadar Odil sudlov akademiyasini ISO 37001 korruptsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi xalqaro standart bo'yicha auditdan o'tkazish choralari ko'rsin.

15. Sudyalor oliy kengashi Oliy sud, Odil sudlov akademiyasi bilan birgalikda sudyalor va sud apparati xodimlarining har uch yilda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv kurslarida malakasini oshirish choralari ko'rib borsin.

16. Quyidagilar:

a) Sudyalor oliy kengashi — 2026-yil 1-sentabrga qadar sudyalor tomonidan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini hamda daromadlar va mol-mulki to'g'risidagi deklaratsiyani Kengashga taqdim etish, shuningdek, ularni tekshirish va tahlil qilishning avtomatlashtirilgan elektron tizimini;

b) Oliy sud 2027-yil 1-mayga qadar: 1) sud apparati xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini hamda daromadlar va mol-mulki to'g'risidagi deklaratsiyani Oliy sudga taqdim etish, shuningdek, ularni tekshirish va tahlil qilishning avtomatlashtirilgan elektron tizimini;

2) sud apparati xodimlari faoliyatidagi korruptsiya, shubhali sxemalar va intizom buzilishlariga olib keluvchi bo'shliqlarni aniqlab, ularni bartaraf etish, sud apparati xodimlari faoliyatini monitoring qilish imkonini beruvchi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish elektron axborot tizimini ishga tushirish.

IV. Farmon ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

17. Sudlarda komplayens nazorat tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari bo'yicha "yo'l xaritasi" si ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

18. Oliy sud uch oy muddatda Komplayens nazorat xizmatini malakali kadrlar bilan to'ldirish va ularning samarali faoliyatini yo'lga qo'yishni ta'minlasin.

19. Oliy sud Sudyalor oliy kengashi, Adliya vazirligi va Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflar kiritilsin.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Komplayens xizmati va Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi Oliy sudga Komplayens nazorat xizmati faoliyatini samarali tashkil etish, xodimlarning malakasini oshirishda uslubiy jihatdan ko'maklashib borsin.

21. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsan javobgar etib Oliy sud raisi B.D. Islamov va Sudyalor oliy kengashi raisi X.B. Yodgorov belgilansin.

22. Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining sud tizimini isloh qilish bo'yicha o'rinbosari N.J. Xakimova zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Toshkent shahri, 2026-yil 8-iyun

SH. MIRZIYOYEV



Jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar, xalqaro bozorlardagi tebranishlar, sanoat va texnologiyalarning keskin rivojlanishi, energiya bozorlaridagi transformatsiya, global ta'minot zanjirlarining qayta shakllanishi O'zbekistondan ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi har qanday davlat milliy xavfsizligining bir qismi va iqtisodiy siyosatning asosini tashkil etadi. Davlat mustaqil va barqaror tashqi va ichki siyosat yuritishi uchun, avvalo, aholining barcha qatlamlariga kerakli va ehtiyojiga mos oziq-ovqat ta'minotini kafolatlashi zarur.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotimizning to'rtinchi qismini tashkil qiladigan muhim soha. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida qishloq xo'jaligida hisodkorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish borasida qator muhim vazifalar belgilangan. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi ham qabul qilingan, keng ko'lamdagi iqtisodiy islohotlar samarasi o'laroq, agrar sohada ijobiy o'zgarishlar yuz berib, bu jarayon davom etayotir.

Ayni paytda O'zbekiston uchun bu yo'nalish alohida ahamiyatga ega va agrosanoat majmuasi chuqur transformatsiya jarayonida. Ya'ni avvalgi xomashyo yetishtirishga yo'naltirilgan tizim o'rni qayta ishlab, mahsulot sifati va yuqori qo'shilgan qiymatga asoslangan yangi tizim egallamoqda.

O'zbekiston 2030-yilga qadar oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 10 milliard dollarga yetkazish, eksport geografiasini yana 100 ta davlatga kengaytirishni maqsad qilgan. Endi oziq-ovqat xavfsizligi masalasiga nazoratning oddiy yo'nalishi sifatida emas, butun tizimning poydevori sifatida qaralmoqda. Boisi, zamonaviy oziq-ovqat bozorida nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki mahsulotni yetishtirish, saqlash, ishlab chiqarish va qayta ishlab jarayonlari shaffofligidan tortib, veterinariya talablari, xomashyo sifati, nazorat va barcha bosqichlarda



## OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI BO'YICHA YAGONA DAVLAT BOSHQARUVI

yagona standartlarga muvofiqlik masalasiga ham yuqori talab qo'yilmoqda.

Shu sabab oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish bugun tarmoq taraqqiyotining muhim shartiga aylandi. Asosiy, veterinariya nazorati, sanitariya talablari, laboratoriya diagnostikasi, qayta ishlab jarayonlari va nazorat tizimlari o'zaro uyg'un holda faoliyat yuritadigan yagona infratuzilmani yaratish zarur. Bu, ayniqsa, bir vaqtning o'zida bir necha strategik vazifani hal etayotgan mamlakat uchun nihoyatda muhim.

Ichki bozorni sifati oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qayta ishlab sanoatini rivojlantirish va eksport geografiasini kengaytirishda chorvachilik tarmog'i alohida o'rin tutadi. Ko'plab mamlakatlarda aynan chorvachilikning rivojlanish darajasi agrar sektorning yuqori ko'rsatkichi sifatida baholanadi. Bu o'rinda nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki seleksiya, veterinariya xizmati, ozuqa bazasi, bioxavfsizlik, qayta ishlab texnologiyalari va samarali nazorat tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ma'lumotlarga ko'ra, keyingi 25 yilda dunyo mamlakatlarning 42 foizida qoramollar soni 12 foiz qisqargan. Buning asosiy sabablari qiymat ozuqa, qurg'oqchilik, ekologik omillar, yuqori foiz stavkalar va daromad kamayishi bilan bog'liq. Natijada jahon bozorida go'shtning o'rta narxi rekord darajaga yetgan.

Yurtimizda mazkur tarmoqni izchil rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki aynan shu tarmoq go'sht, sut va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini chuqur qayta ishlab uchun asosiy xomashyo bazasini shakllantiradi.

Ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida veterinariya nazorati, laboratoriya baholashi, sertifikatlashtirish jarayonlarining tizimligi mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash barobarida aholining sohaga ishonchini ham oshiradi. Muhimi, eksport geografiasini kengayadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi masalasiga qaratilgan alohida yondashuv agrosanoat majmuasining barqaror rivojini ta'minlaydi. Qolaversa, mamlakat ham xalqaro bozorlarga qanchalik chuqur integratsiyalashib borsa, mazkur sohada yagona, izchil va professional

asosda shakllantirilgan boshqaruvning samarasi shunchalik ortib boradi.

Shu bois, bu tarmoq rivoji yo'lida yurtimizda amalga oshirilayotgan har bir loyiha davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida. Joriy yil 12-may kuni oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasida davlat boshqaruvinii takomillashtirish hamda chorvachilik sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda ham bu borada qator vazifalar belgilandi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat ta'minotini barqarorlashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini

yetishtirish, saqlash, qayta ishlab va eksport qilish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda 4 million gektar ekin maydoni, 1,5 million tonna sig'imga ega saqlash omborlari va 3,5 million tona mahsulotni qayta ishlab quvvatlari aholini arzon va sifati oziq-ovqat bilan ta'minlash, shuningdek, 4 milliard dollarlik mahsulot eksport qilish imkonini bermoqda.

Shu munosabat bilan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasini chuqur isloh qilish va xalqaro talablarga mos yagona markazlashgan tizim yaratilishi belgilandi. Unga muvofiq, "daladan dasturxonigacha" tamoyili asosida barcha nazorat jarayonlarini qamrab oladigan Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi qo'mitasi tashkil etildi.

Yangi tizimda eskirgan, tadbirkor faoliyatiga to'siq bo'layotgan tekshiruvlardan voz kechiladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini majburiy sertifikatlash bekor qilinib, uning o'miga xavfsizlik asoslangan nazorat va tekshiruv tartibi joriy etildi.

Bugun tarmoqda yangi islohotlar davri boshlandi. Endilikda xavfli mahsulotlar to'g'risida tezkor xabar berish va ularni qaytarib olish bo'yicha elektron tizim yaratiladi, — deydi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi direktori Ibrohim Ergashev. — 2029-yil 1-yanvardan boshlab meva-sabzavot eksport faqat agrologistika markazlari orqali amalga oshiriladi. Eksport salohiyati yuqori yirik oziq-ovqat korxonalarini xalqaro xatarlar tahlili standartlari va Alimentarius kodeksi talablariga o'tkazish bo'yicha dastur ishlab chiqiladi. Meva-sabzavotchi ixtisoslashgan 20 tumanda ichki fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirishga ko'maklashuvchi jamoatchi inspektorlar faoliyati yo'lga qo'yilishi jarayonlarni tezlashtirish, ortiqcha tekshiruvlarni kamaytirish va eng

asosiy, mahsulotni sifatli eksportga tayyorlashga xizmat qiladi.

Faol va halol ishlayotgan fermerlar reytingi yuritiladi va ularga qo'shimcha imtiyozlar beriladi. 2027-yil 1-martgacha oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha yagona avtomatlashgan axborot platformasi ishga tushiriladi. U chegaradagi "Yagona darcha" tizimi bilan integratsiya qilinib, eksportchilar ortiqcha byurokratik jarayonlardan ozod etiladi.

Tadbirkor va fermerlar uchun yana bir qulaylik meva-sabzavot eksporti statistikasi mahsulot qaysi hududda yetishtirilgan bo'lsa, o'sha hududda hisobga olinishi bo'ldi. Keyingi yildan laboratoriya tekshiruv, hayvonlarni emlash, dezinfektsiya va identifikatsiya qilish kabi davlatning 6 ta funksiyasi xususiy sektorga beriladi.

Yana bir muhim jihat. Har bir mahsulot bo'yicha onlayn kuzatish tizimi yo'lga qo'yiladi. Fermer va dehqonlar uchun "Agro ko'makchi" mobil ilovasida elektron "Dala daftari" tizimi joriy etiladi. Mazkur tizim orqali sun'iy intellekt zararkundalar tarqalishini oldindan bashorat qilib, dehqonlarga zarur tavsiyalar beradi.

Yig'ilishda chorvachilik va yaylov xo'jaligini rivojlantirish masalalari ham muhokama qilindi, — deydi qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosari Akmaljon Qosimov. — Ayni maqsadda Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida Chorvachilik va yaylov xo'jaligini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. U Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi negizida faoliyat boshlaydi. Yangi agentlik oldiga qoramollar sonini 16,5 million, qo'y va echkilar sonini 30 million, parrandalar sonini 141 million boshga yetkazish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, go'sht va sutni qayta ishlab darajasini 50 foizga, nasldor qoramollar ulushini 90 foizga yetkazish, ozuqabop ekin maydonlarini esa 1,5 barobar ko'paytirish belgilandi. Ozuqa bazasini kengaytirish va naslchilikni yaxshilash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi va har bir viloyatdan bittadan tuman chorvachilikka ixtisoslashtiriladi.

Chorvachilikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari yillik 10 foiz stavkada, 4 yil imtiyozli davr bilan 10-yil muddatga kreditlar ajratadi. Nasldor chorvani import qiluvchilar 2029-yilgacha qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi. Banklarga yillik 6 foiz stavkada 1 trillion so'm va 50 million dollar resurs joylashtiriladi. Ushbu resurslar hisobidan joriy yilda 5,5 trillion so'mlik 1,5 mingta loyihamo ishga tushirish, 25 mingta ish o'rni yaratish va qoramollar sonini 400 mingtaga oshirish rejalashtirilgan.

Yangi tizimni joylarda samarali tashkil etish, tadbirkorlar va fermerlarga amaliy ko'mak berish, chorvachilikda ozuqa bazasi, naslchilik, qayta ishlab va eksport imkoniyatlarini kengaytirish aholini sifati oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bilan birga iqtisodiy barqarorlikka erishish, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Prezidentimizning ijod erkinligi sohasidagi islohotlari ko'p qirrali va tizimli xarakterga ega. Ular aniq maqsadlarga tayangan. Huquqiy asoslar, ochiqlik siyosati, davlat qo'llab-quvvatlovi, ta'lim islohotlari o'zaro uyg'un holda rivojlanmoqda.

Birlashsak — katta kuchmiz



# IJOD UCHUN ENG YAXSHI VAQT —



Shuhrat O'RIPOV, jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Oila a'zolari o'z xonadonida yig'ilib, bu voqeani farzandlari va nabiralari bilan xursandchilikda nishonlayapti. Fotoalbomlari yozib, o'tgan kunlarni xotirlayapti. Shu tariqa oilaviy an'analar rivoj topadi, avlodlar orasida hamjihatlik kuchayadi va o'z idlzlariga bog'liqlik mustahkamlanadi.

Madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan uchrashuv ko'p jihatdan tarixiydir. Davlatimiz rahbari bu muloqotni "ilhom berish kuni" deb nomlagani bejiz emas. Darhaqiqat, bildirilgan tashabbuslar adabiyot, san'at va madaniyat sohasi vakillariga kuchli ilhom bag'ishladi.

Xususan, ijodkorlarni rag'batlantirish va yosh iste'dod egalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim joriy etilishi belgilandi. Teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg'u, tasviriy va amaliy san'at kabi 21 ta yo'nalish bo'yicha ijodiy birlashmalar tashkil etish, har yili Milliy ijodkorlar qurultoyini o'tkazish va unda yil davomida eng yaxshi natija ko'rsatgan ijodkorlarni munosib taqdirlash tashabbusi yanagradi.

Musiqa sohasida yangi asarlar yaratgan, xalqaro tanlovlarda g'olib bo'lgan yoki asarlari mamlakat va xalqaro sahnalarda ijro etilayotgan qo'shiqchi, sozanda va kompozitorlar, adabiyot sohasida esa asarlari keng e'tirof etilgan, katta adadda chop etilgan, teatr va kinoda sahnalashtirilgan shoir, yozuvchi va dramaturglar rag'batlantirildi. Bunday ijodkorlarga yil davomida har oyda 5 million so'mdan honoror beriladi. Ular O'zbekiston bo'yab samolyot, poyezd va jamoat transportidan bepul foydalanadi.

Uchrashuvda ijodkorlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham qator imtiyozlar e'lon qilindi. Har yili 1000 nafar shoir va yozuvchi, madaniyat va san'at vakili, muzey xodimi va rassomlarga uy-joy olish uchun ipoteka krediti dastlabki to'lovining 50 foizi qoplab beriladi.

Madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan uchrashuv bir haqiqatni isbotladi — yangi O'zbekiston tom ma'noda ijodkor qabr topayotgan zamin. Bugun qaysi ijodkor bilan subhatlashsang, o'z yutuqlari, mehnatiga yarasha rag'bat topayotgani haqida jo'shib gapiradi. "Zamonimiz keldi. Ijod uchun eng yaxshi vaqt — hozir!" deydi ular to'qlinlab.

Aslida ham shunday! Vatanimizda ijod erkinligi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar e'tiborga molik. Dunyoga boqaylik: hamma mamlakatda ham holat bizdagidek emas. Hamma davlatning rahbari ham ijodkorlar bilan muloqot qilmayapti va ular haqida qayg'urmayapti. Hatto rivojlangan davlatlarda ham ijod erkinligi borasida uzoq yillik muammolarni, ijodiy turg'unlikni kuzatish mumkin.

Aytmoqchi bo'lganimiz — O'zbekistondagi ijod erkinligi muhiti o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan voqe'lik yoki tasodifiy qarorlar hosilasi emas. Bunga ijod ahlini yurakdan yaxshi ko'radigan, ularni qadrlaydigan va ijodkorning ma'naviy missiyasini teran anglaydigan Prezidentimizning siyosiy irodasi tufayli erishilmoqda.

Ijod erkinligi — jamiyat drayveri

Fransiyalik faylasuf, Nobel mukofoti sovrindori Alber Kamyu "Erkinlik — inson qadriining asosi", deydi. Yozuvchining bu nuqtayi nazarini ijod erkinligi insonning ma'naviy mohiyati bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Erkinlik bo'lmasa, ijod ham, shaxs ham to'liq rivojlanmaydi.

Ijod erkinligi jamiyat rivojining asosiy drayverlaridan. Yangi O'zbekistondagi islohotlar bu erkinlikning ahamiyatini yanada kuchaytirdi va uni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon qildi. Tizimli islohotlar natijasida jamiyatda ochiqlik va fikrlar xilma-xilligiga

nisbatan munosabat sezilarli o'zgardi.

Mamlakatimizda ijod erkinligini ta'minlash borasidagi siyosat mohiyatida bugunimiz va ertamiz uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ulug'vor maqsadlar bor.

Birinchi, ijod erkinligi har qanday zamonaviy demokratik jamiyatning poydevori prinsiplaridan. U iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishga turki beradi. Tariximizdagi Birinchi va Ikkinchi Renessans misolida bu haqiqatni ko'rishimiz mumkin. Bu davrlarda xalqimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk shaxslarni aynan ijod erkinligi maydonga olib chiqqan. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga intilayotgan davlatimiz ham shu ezuq maqsadda ijod erkinligi uchun keng sharoitlar yaratmoqda.

Ikkinchidan, ijod erkinligi — yangi g'oyalar va xilma-xillik manbai. Ijod gurkiragan muhitda yaratuvchanlik bo'ladi. Ijodkorlar tom ma'noda jamiyatga ilg'or fikrlarni tashuvchilardir.

Uchinchidan, ijod qilish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Yaratgan yuqtirmasa, iste'dod bermasa, biror asar yaratish, hattoki ikki misra yozish qiyin. Ijodkorlar noyob, xos odamlar. Shunday ekan, ularni jamiyatning o'ziga xos vakillari sifatida ardoqlash va hurmatini joyiga qo'yish lozim.

To'rtinchidan, ijodni qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatni harakatga keltirish mumkin. Odamlar o'z mehnatiga rag'batdan harakatga keladi, uyg'onadi va yangiliklar bunoyd qiladi. Ijod erkinligi insonni shaxs sifatida shakllantiradi.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning ijod erkinligi sohasidagi islohotlari ko'p qirrali va tizimli xarakterga ega. Ular aniq maqsadlarga tayangan. Huquqiy asoslar, ochiqlik siyosati, davlat qo'llab-quvvatlovi, ta'lim islohotlari o'zaro uyg'un holda rivojlanmoqda.

Bu jarayonlar natijasida jamiyatda fikrlar xilma-xilligi, ijodiy

faollik va intellektual salohiyatning ortishi kuzatilmoqda.

To'qilmagan hikoyalar

Ijtimoiy tarmoqlarni kuzata turib, ba'zida bir fikr xayolimga keladi. Yurtimizdagi so'z va ijod erkinligi, buning uchun yaratilgan sharoitlar haqida ko'p o'ylamayotgandekmiz, kam gapirayotgandekmiz. Ijodkorlarga qaratilayotgan e'tiborni tabiiy qabul qilishga o'rganib qoldik, ko'p ham hayratga tushmayapmiz.

Aslida, jamiyatimizdagi erkin ijod muhitiga osonlik bilan erishilayotgani yo'q. Buning ortida ko'p-ko'p mashaqqatlar, katta mehnat yotibdi. Uzoqqa bormaylik, yaqin tariximizda ham ijod erkinligining cheklanishi va ijodkorlarning norasmiy qora ro'yxatlariga solinishiga doir ko'plab holatlarga guvoh bo'ldik.

Bunga misollar yetarli.

I

1998-yil. Zomiga ustoz ijodkorlar bilan bordik. Yosh ijodkorlarning respublika seminari o'tkazilmoqda. O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf bir payt hayajonlanib shoiri Halima Xudoyberdiyevaga "Yuring, opa, sizga bir joyni ko'rsatib kelaman", deb qoldi. Biz ham ustozlarga hamroh bo'lib mashinada yo'lga chiqdik.

Avtoulavlar Zomin sanatoriysiga yaqin joyda to'xtadi. Muhammad Yusuf Halima opaga qarab: "Opa, ko'ryapsizmi? — dedi tog'dan tushayotgan sharsharaga ishora qilib. — Siz shu sharsharaga o'xshaysiz. Men shu sharsharaga Halima Xudoyberdiyeva deb nom qo'ydim. Siz shunday bag'rikeng, dilbar shoirasiz. Ovozini eshitayapsizmi? Sizning she'raringizda shunday



hozir!

ohang bor, ruh bor. Sharsharaning ulug'vorligi uzoqdan yaxshi ko'rinadi".

O'shanda Halima opa "Rahmat, Muhammadjon" deb kulib qo'yd. Lekin g'amgin edi. Biz, yosh ijodkorlar bilib turardik — Muhammad Yusufning bu lutfi aslida o'sha kezlari norasmiy taqiqa yurgan ustoz shoiraning ko'nglini ko'tarish uchun atayin qilingan harakat edi.

Keyinchalik ham davrlarda, o'zaro subhatlarda ko'p bora guvoh bo'ldik — ustoz



shoiraning uzoq yillar chehrasi va qalbi yorishmadi...

O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva yangi davrda — katta tanaffusdan keyin norasmiy taqiqa xalos bo'ldi. U 2017-yilda Prezidentimiz farmoniga ko'ra "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlandi. Ustoz ijodkor o'zi orzulangun kuni, elu yurtning oldida yuzi yong' bo'lganini oz bo'lsa-da ko'rdi.

II

Bugun Guliston shahrida Halima Xudoyberdiyeva nomidagi, Andijon shahrida esa Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablari faoliyat yuritmoqda. Bu o'quv dargahlarida yuzlab yangi iste'dod egalari kamolga yetmoqda.

1999-yil sentabrda O'zbekiston milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga qabul qilindim. Omadni qarangki, bir vaqtning o'zida "O'zbekiston ovozi" gazetasida musahhib bo'lib ishlay boshladim. Tahririyat mashhur "Matbuotchilar uyi"ning 3-qavatida joylashgan edi. Shu qavatda yana bir "idora" — O'zbekiston matbuot qo'mitasining maxsus boshqarmasi (adashmasam, UzLIT deyilardi) ish yuritardi. Vazifam taqozosiga ko'ra gazeta nashrga tayyorlanayotgan kunlari shu "boshqarma"da ko'p vaqtim o'tardi. Tahririyatda ko'rilgan sahifalarni ketma-ketlikda o'qish uchun shu "idora"ning xodimlariga olib borar edim. Ular o'qib, ruxsat bergach, sahifani olib ketardim. Qandaydir tuzatish bo'lsa, o'shani tuzatardik. Bu idora ruxsat bermagan maqola, she'r, hikoya, kitob, qo'yinchi, hech narsa nashr etilmadi. Hatto shoirilarning she'rilaridagi misralar, so'zlar, sarlavhalarga ham e'tirozlar bildirildirdi. Qaysidir satri o'zgartirilgani uchun jig'biyiron bo'lgan shoirilarni ko'p ko'rganman. Rasmlar ham kuchli nazoratdan o'tkazildirdi. Bu haqiqiy senzura organi

edi. O'sha kezlari rasman senzura yo'q deyilsada, yonginimizda — qo'shni xonada shunday nazoratchi xodimlar ishlardi.

O'sha xonalarda juda ko'p gazeta-jurnallarning bosh muharrirlarini — biz, talabalar uchun haqiqiy "kumir" bo'lgan ustoz jurnalistlarni asabiy holda uchratganman. Ular odatda ruxsat berilmagan qaysidir maqola yoki tuzatish bo'yicha o'z fikrini bildirish, bahs-lashish uchun kelardi. Xurshid Do'st Muhammad, Ahmadjon Meliboyev, Azim Suyun, Safar Ostono, Ismat Xushev kabi ustoz jurnalistlarning "boshqarma" xodimlari bilan bahs-lashganiga ko'p guvoh bo'lganman. Bunday bahslar aksariyat hollarda "idora" xodimlarining g'alabasi bilan yakunlanardi. Chunki o'shanda ularning aytgani aytgan edi.

Hozir bunday tuzilmalar yo'q. Tahririyatlar chinakamiga mustaqil. O'zlar xo'lagan mavzuni o'zlar xo'laganidek yoritmoqda. Ularning faoliyatiga nisbatan tashqi bosimlar va asossiz aralashuvlar mavjud emas. Qonun doirasida ishlayotgan jurnalist qonunning doimiy himoyasida.

III

O'zbekning iste'dodli shoirilaridan biri Yo'ldosh Eshbek ham uzoq yillar norasmiy taqiqa yurdi. Kitoblari ancha vaqt nashr etilmadi, she'rleri matbuotda ham bosilmadi. Xorijga chiqishiga cheklov qo'yildi. O'sha yillarda televideniya ham chiqishlar qilmadi.

Uch-to'rt yil oldin Yoshlar ishlari agentligida o'tkazilgan bir tadbirda ustoz shoir o'sha davrlarni eslab, ko'zida yosh bilan gapirdi. "Uyda nabiralaring bilan ovora bo'lib o'tirganimda televideniya ekranidan ijodkor do'stlarim ko'rinib qoladi. She'r o'qiydi yoki fikr bildiradi. Shunda nabiralaring maqtanib, "Bu shoir mening yaqin do'stim bo'ladi. Birga universitetda o'qiganmiz. Birga nashriyotda ishlaganmiz", deyman. Shunda nabiram mendan so'raydi: "Bobo, siz ham shoirimisiz? Unda siz nega televizorga chiqmaysiz?". Nima deyishimni bilmay, kalovlanib qolaman. Bolaga yolg'on gapirib bo'lmaydi-ku! Lekin unga rostini ham qanday aytaman?! Bilsangiz, bu juda og'ir bo'larkan. Uzoq yillar "Men shoirman", deb nabiralaringa baralla ayta olmadim. O'ksib, o'ksinib yashadim. Hech kim davrasiga taklif qilmay qo'yd. Bir zamonlar bo'ldi: ko'pchilik ijodkorlardan o'zini olib qochdi. Bu kunlarni hech bir ijodkor ukamga tilamayman", degandi o'shanda alam bilan shoir.

Yo'ldosh Eshbek bugun erkin ijod qilmoqda. Jo'shib she'rlar o'qimoqda. Davrlarda qo'rt ko'rib o'tiribdi. Shoir intervuyularidan birida "XX asr meni tan olmadi, lekin XXI asrga rahmat!" degani e'tiborga molik.

Yaqinda atqli shoirimizga Prezidentimiz 3 xonali uy sovg'a qildi. Davrlarning farqini ko'ryapsizmi?!

IV

2016-yil noyabr oyi edi. Kuni esimda yo'q. Ziyolilar O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov bilan vidolashish va marhumni

so'nggi yo'lga kuzatish uchun yig'ilgan.

O'sha kunlarda Prezidentlikka saylovlar kechayotgan o'ta dolzarb palla edi. Vidolashuv marosimida yig'ilgan ko'pchilik tig'iz davr bo'lshiga qaramay, Shavkat Mirziyoyevning vaqt topib, shoirni so'nggi manzilga kuzatishga kelganini va marhum ustoz shoirning mayitini AQSHdan olib kelishiga shaxsan o'zi bosh-qosh bo'lganini aytardi. Ijodkorlar davlatimiz rahbari haqida boshqacha samimiyat bilan so'zlar, xuddi "o'zining odami"dek qabul qilardi. Harqalay men o'sha kungi subhatlarda shuni yurakdan his qilganman.

Taomilga ko'ra, dastlab ustoz shoirning uyiga kirib, yaqinlaridan ko'ngil so'rab, sabr tilagan bo'ldik. Odam ko'pligi uchun uydun to vidolashuv manziligacha yo'lakdan ikki-uch qator bo'lib yurish lozim edi. Qarasam, yonginamda buyuk hofiz Sherali Jo'rayev yurib boryapti. Hammamiz kabi g'amga cho'mgan, kayfiyatsiz va chehrasi so'lg'in edi. Darvozaning ro'parasida davlatimiz rahbari turgan edi. Marhumning xonadonidan chiqib, "Do'rmon" ijod uyiga qarab yo'naldik. Mendan oldinroqda buyuk hofiz horg'in yurib borardi.

Chamasi 20 qadam yurganidan keyin Sherali Jo'rayev birdan orqaga — Prezidentimizga qaradi. Bu umidvor nigoh ko'z oldimda manguga muhrlanib qolgan. Aniq esimda — hofizning nigohida yorug' kunlar kelganidan umidvorlik, o'zi kutgan yoqimli xabarga entikish bor edi. Uzoq yillik taqiqa horigan, katta sahnalarni sog'in tungan va muxlislar olqishining xumori tungan g'amgin nigoh edi...

Hofiz o'zi kuylaganidek, "Zamon, zamon, bizning zamon, davron bizniki", deya yotgandek edi bu nigohlar...

Oradan bir oz muddat o'tib, Sherali Jo'rayev katta sahnaga qaytdi. Hofiz 2018-yilda "Fidokorona xizmatlari uchun" va 2022-yilda esa "El-yurt hurmati" ordenlari bilan taqdirlandi.

Ha, Shavkat Mirziyoyevning Prezidentlikka saylanishi juda ko'p insonlarga, o'z vaqtida har xil vajlar bilan norasmiy taqiq qo'yilgan yuzlab iste'dod egalariga umid va hayot baxsh etgani rost. Bu umidlar tez ro'yobga chiqdi. 2017-yildan keyingi davrda norasmiy taqiqa bo'lgan va jamiyat e'tiboridan chetda qolgan qanchadan-qancha shunday iste'dod egalari sahnalarga, teleefirlarga va ijodga qaytdi.

Bular — o'zim bevosita guvoh bo'lgan jarayonlar. Ushbu voqe'liklar yurtimizda ijod erkinligi o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagani, "osmondan chalpakdek yog'ilgan" hodisa emasligini, bugungi kunlarga ayovsiz kurashlar bilan yetib kelganimizni yorqinroq ifodalaydi.

Jamiyatni o'zgartirgan islohotlar

O'zbekistonda ijod erkinligi uchun yaratilgan sharoitlar Prezidentimizning nafaqat xalqparvar siyosati, balki shaxsiyati bilan ham bog'liq. Davlatimiz yetakchisi madaniyat, san'at va adabiyotning chinakam muxlisi ekanini ko'p bora ta'kidlagan. U hali hududlarda ishlagan kezlardayoq ko'p xayrli ishlari ovoza bo'lgan.

Masalan, Jizzax viloyatida ishlagan davrida — 1997-yili Zomin respublika yosh ijodkorlar seminariga asos solgan. Menga ham mana shu tarixiy seminarida ishtirok etish baxti nasib etgan. O'shanda Prezidentimizning ustoz ijodkorlar bilan samimiy muloqotiga, adabiyotga va ijodga yuksak mehri unga guvoh bo'lganmiz.

Birgina shu seminar orqali yuzlab iste'dod egalari kashf etildi va katta adabiyotga qadam qo'ydi. Shuning o'z-yiqoq o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo'shilgan bemsil hissasidir!

2017-yildan keyin O'zbekistonda davlat boshqaruvida yangi bosqich boshlandi. Bu bosqichning eng muhim xususiyati jamiyatni ochish, davlat va fuqaro o'rnatida muloqotni kuchaytirish va ijtimoiy fikrga nisbatan munosabotni o'zgartirish bo'ldi. Bu siyosat ijod erkinligiga bevosita ta'sir qildi. Chunki jamoatchilik muhokamalari kengaydi, ijodiy imkoniyatlar ortib bordi.

Mamlakatimiz yetakchisining 2017-yil 3-avgustda ijodkor ziyolilar bilan o'tkazgan uchrashuvida kun tartibidagi dolzarb masalalar va muammolar ochiq-oydin muhokama qilindi. Madaniyat, san'at va adabiyotni rivojlantirishga doir ustovur vazifalar belgilanib, ijodkorlarni ham ma'nan, ham moliyaviy qo'llab-quvvatlashga doir qator tashabbuslar ilgari surildi. Davlat ijod va ijodkorlar uchun doimiy g'amxo'rlikni, jamiyatda ijod erkinligini ta'minlashni o'z zimmasiga oldi. Shu asosda yangi O'zbekistonda ijod erkinligi uchun — yozuvchilar, jurnalistlar, blogerlar, san'atkorlar va mustaqil tadqiqotchilar faoliyati uchun yangi institutsional va huquqiy muhit shakllana boshladi.

2017-yildan keyingi davrda madaniy-ma'rifiy sohani isloh qilish, ijod ahlini qo'llab-quvvatlash, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy fikr erkinligini kengaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar ko'ridi. Bu jarayon "inson qadri", "ochiqlik", "adolatli jamiyat" va "erkin fuqarolik muhiti" kabi g'oyalar bilan uzviy bog'landi.

Ijodkorlar uchun moddiy va institutsional qo'llab-quvvatlov ham muhim. Shu maqsadda adabiyot, teatr, kino, musiqa va tasviriy san'at sohalarida tili grantlar, tanlovlar va ijodiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Ijodiy tashkilotlar faoliyatiga har jihatdan ko'mak berilmoqda. "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jam'arasi" va "Ildon" jamoat fondining tashkil etilishi ayni shu sohadagi vazifalarni samarali hal etishga qaratilgan.

Madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan kuni kecha o'tkazilgan uchrashuvda ham bu borada yangi tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, har yili 100 nafar yosh davlat hisobida xorijiy madaniyat va san'at muassasalarida ta'lim olishga yuboriladi. Yosh iste'dod egalarini aniqlash, produserlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ijodga investitsiya" jamg'armasi tashkil etilib, unga yilliga 200 milliard so'm ajratiladi.

Ijod erkinligini ta'minlashning muhim omillaridan biri ta'lim va intellektual muhitni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bo'ldi. Ayni vaqtda yurtimizdagi 326 ta musiqa va san'at, 29 ta ixtisoslashgan maktabda 95 ming o'g'il-qiz ta'lim olmoqda. Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida mustaqil fikrlaydigan, tahlil qila oladigan va ijodiy yondashuvga ega yangi intellektual avlodni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ijod maktablari orqali yoshlarda badiiy tafakkur va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsad qilindi.


Yangi O'zbekistonda ijod erkinligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar mamlakatning demokratik taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishida muhim o'rin tutmoqda. Bu jarayonda davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi va madaniy sohani rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari muhim omil bo'layotir.

Prezidentimiz boshqaruving muhim xususiyati shundaki, davlat siyosatida inson manfaat va ma'naviy taraqqiyot o'rtasidagi uyg'unlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yangi O'zbekiston" g'oyasi faqat iqtisodiy modernizatsiya emas, balki erkin fikrlaydigan, ijod qiladigan va jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan shaxsni shakllantirish konsepsiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ijod erkinligi doimiy ravishda takomillashuvni talab qiladigan dinamik jarayon ekanini e'tiborga olsak, kelgusida mazkur islohotlarning samaradorligi huquqiy davlatlilik, fuqarolik jamiyati va intellektual muhit rivoji bilan yanada mustahkamlanishi shubhasiz.



Nuqtayi nazar



# O'ZBEKISTON – ROSSIYA HAMKORLIGINING YANGI UFQLARI

Mulohaza



## TA'LIM DIPLOMATIYASI

### IKKI DAVLAT ALOQLARIDA ALOHIDA AHAMIYATGA EGA



**Qalandar ABDURAHMONOV, G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali direktori, akademik**

**Boshlanishi 1-betda**

Raqobat tobora texnologiyalar, muhandislik yechimlari, malakali kadrlar va mehnat unumdorligi sohasiga ko'chmoqda. Demak, iqtisodiyot kelajagini inson kapitali sifatida, ilm-fan darajasi, innovatsiyalar va professional tayyorgarlik belgilaydi.

O'zbekiston uchun Peterburg xalqaro iqtisodiy forumida ishtirok etish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakat barqaror iqtisodiy dinamikani namoyon etmoqda. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti 1849,7 trillion so'mni tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan 7,7 foiz o'sdi. Tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard AQSH dollariga yetib, 20,7 foiz oshdi. Eksport hajmi 33,8 milliard dollar, import esa 47,4 milliard dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyot ochiqdigi ortib borayotgani va O'zbekistonning mintaqaviy hamda xalqaro iqtisodiy makondagi roli mustahkamlanayotganini ifodalaydi.

Rossiya O'zbekistonning asosiy savdo-iqtisodiy sheriklaridan biri bo'lib qolmoqda. 2025-yil yakunlariga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi qariyb 13 milliard AQSH dollariga yetdi va 8,5 foiz o'sdi. O'zbekistonning Rossiyaga eksporti taxminan 4,3 milliard dollarini tashkil etib, qariyb 20 foiz oshdi, Rossiyadan import esa 8,6 milliard dollardan ziyod bo'ldi. Biroq hamkorlikning yangi bosqichga o'tish savdodan sanoat kooperatsiyasi, ishlab chiqarishni mahalliy qilish, texnologik sheriklik va kadrlarni birgalikda tayyorlash kabi murakkabroq shakllarga o'tishni talab etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimizning "Yevrosiyo texnologik industrialashuv kamari"ni shakllantirish tashabbusi alohida ahamiyatga ega. Gap zamonaviy raqamli platforma orqali o'zaro bog'langan ishlab chiqarish va texnologik klasterlarni yaratish haqida bormoqda. Bunday model tovar almashinuvidan birgalikda loyihalash, texnologiyalarni joriy etish, muhandislik xizmatlarini rivojlantirish, qo'shilgan qiymat yaratish va milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligini oshirish bosqichiga o'tish imkonini beradi.

O'zbekiston uchun bu masala, ayniqsa, dolzarb. Chunki mamlakatimiz sifat jihatidan yangi industrial yangilanish bosqichiga kirmoqda. Bugun faqat ish o'rinlarini ochish emas, balki ularning unumdorligi, daromadlilik, rasmiyligi va texnologik darajasini ta'minlash ham muhim. Unumli ish bilan bandlik insonga barqaror daromad, ijtimoiy himoya, kasbiy o'sish va iqtisodiyot rivojiga real hissa qo'shish imkonini berishi lozim. Shu bois, investitsiyaviy va sanoat loyihalarini nafaqat kiritilayotgan sarmoya hajmi, balki yaratiladigan malakali ish o'rinlari soni va ularning inson kapitaliga ta'siri nuqtayi nazaridan ham baholash maqsadga muvofiq.

Muhandislik, texnik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy sanoat kooperatsiyasi yuqori texnologiyalar, raqamli tizimlar, avtomatlashtirish, energetika uskunalar va ilg'or ishlab chiqarish jarayonlari bilan ishlay oladigan mutaxassislar rivojlana olmaydi. Shu jihatdan, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining yirik texnologik vazifalarni amalga oshirish uchun malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy va ta'lim maktablarini

rivojlantirish zarurligi haqidagi pozitsiyasi alohida ahamiyatga ega.

Bugun yuqori texnologik energetika va muhandislik tayyorgarligi bilan bog'liq yo'nalishlarda Rossiya oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning qariyb 400 fuqarosi tahsil olmoqda, yana 300 nafardan ortiq talaba Toshkent shahridagi "MIFI" Milliy tadqiqot yadro universiteti filialida ta'lim olmoqda. Bu holat gap faqat texnologik hamkorlik haqida emas, balki O'zbekiston uchun yangi muhandislik maktabini shakllantirish haqida borayotganini ko'rsatadi.

Prezidentimiz nutqida inson kapitalini rivojlantirish masalasi alohida o'rin egalladi. Bu tabiiy hol. Chunki O'zbekiston katta demografik salohiyatga ega. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakat doimiy aholisi 38 million 236 mingdan oshdi. Aholining o'rtacha yoshi esa 29,5 yoshni tashkil etdi. Bu ulkan ustunlik. U puxta o'ylangan ta'lim va kadrlar siyosati yuritishni talab etadi. Yosh aholi mamlakatning intellektual, professional va unumli salohiyatiga aylantirilishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston va Rossiya o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirish muhim yo'nalishlardan. 2024/2025-o'quv yili boshida O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarida 1 million 432 ming 810 talaba tahsil olgan. Mamlakatda 222 ta oliy ta'lim muassasasi, jumladan, 30 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan. Rossiya universitetlari ushbu tizimda muhim o'rin tutadi. Chunki ular muhandislik, iqtisodiyot, texnika, tibbiyot, pedagogika, energetika va boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlamoqda.

Bu tizimda G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent



tarmoqlari va transport uzellari, balki elektron savdo, marketpleyslar, to'lov servislari, raqamli logistika, onlayn ta'lim, sun'iy intellekt va ish bilan bandlikning raqamli profilari ham kiradi. Ushbu vositalar yangi ish o'rinlarini ochish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va kichik biznesning tashqi bozorlarga chiqishiga ko'maklashadi.

O'zbekistonda allaqachondan beri ko'rsatkichlar o'sishi kuzatilmoqda. 2026-yil yanvar-mart oylarida AT park ishtirokchilari xizmati eksporti 191,8

kiradi. Ayniqsa, sun'iy intellekt, mehnat iqtisodiyoti, energetika, moliyaviy texnologiyalar, sanoat muhandisligi, logistika, agrotexnologiyalar, demografiya va inson kapitalini boshqarish yo'nalishlari istiqbolli hisoblanadi.

Hududlararo hamkorlik ham alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston uchun bu viloyatlarning Rossiya mintaqalari bilan sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm, ta'lim, tibbiyot, qurilish, to'qimachilik sanoati va xizmatlar sohasida to'g'ridan to'g'ri aloqalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bunday aloqalar joylarda yangidan yangi ish o'rinlarini ochish, aholi daromadini oshirish va hududiy tafovutlarni qisqartirish uchun muhim.

Tashrifning madaniy-gumanitar jihati ham e'tiborga loyiq. Sankt-Peterburg va O'zbekistonni nafaqat iqtisodiyot, balki tarix, madaniyat, ilm-fan, xotira va insonlar taqdiri ham bog'lab turadi. Og'ir sinovli yillarda Toshkent evakuatsiya qilinganlar, ilm-fan va madaniyat vakillari, ayollar va bolalar uchun mehr-shafqat va qo'llab-quvvatlov shahriga aylangan. Ana shu tarixiy xotira bugungi munosabatlarda uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

"Samarqanddan Peterburggacha" kreativ-turistik koridorini rivojlantirish to'g'risidagi taklif ham katta ahamiyatga ega. Bugun turizm nafaqat xizmatlar sohasi, balki xalq diplomatiyasi, madaniyatni targ'ib etish, kichik biznesni rivojlantirish va ish o'rinlarini ochish shaklidir. O'zbekiston uchun Rossiya bilan turizm aloqalarini kengaytirish hududlarda ish bilan bandlikning o'sishi, mehmonxonona biznesi, transport, hunarmandchilik, umumiy ovqatlanish, ekskursiya xizmatlari va kreativ iqtisodiyotning rivojlanishini anglatadi.

Shunday qilib, Prezidentimizning Peterburg xalqaro iqtisodiy forumiga tashrifi O'zbekiston — Rossiya hamkorligi yanada yetuk bosqichga kirganini ko'rsatdi. Endi birinchi o'ringa faqat savdo ko'rsatkichlari emas, balki iqtisodiy hamkorlikning sifati — texnologik alyanslar, sanoat kooperatsiyasi, raqamli integratsiya, muhandislik ta'limi, kadrlar tayyorlash va fuqarolar uchun amaliy foyda chiqmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyot uchun muhim asos — ishonch, texnologiya va inson uyg'unligini talab etadi. Ishonch sheriklik uchun mustahkam poydevor yaratadi, texnologiyalar o'sishining yangi imkoniyatlarini ochadi. Inson esa ushbu imkoniyatlarni real natijaga aylantiradi. Shu bois, inson kapitalini rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fan va ta'limni mustahkamlash Peterburg xalqaro iqtisodiy forumida belgilab berilgan kelishuv va tashabbuslarni amalga oshirishning markaziy yo'nalishiga aylanishi lozim.

Anjuman yana bir bor shuni ko'rsatdiki, kelajak davlatlar ochiq mulohotaga tayyor bo'lgan, iqtisodiy manfaatlar gumanitar qadriyatlar bilan uyg'unlashgan, investitsiyalar kadrlar tayyorlash bilan birga olib borilgan, texnologik taraqqiyot esa inson manfaatlariga xizmat qilgan joyda yaratiladi. Prezidentimizning Sankt-Peterburgga tashrifining strategik ahamiyati ham aynan shunda: ushbu tashrif O'zbekiston — Rossiya sherikligini mustahkamladi. Barqaror, izchil hamda munosib kelajak yo'lidagi hamkorlikning yangi ufqlarini belgilab berdi.



filiali alohida o'rin egallaydi. U O'zbekiston va Rossiya oliy ta'limi o'rtasidagi dastlabki hamda eng muhim ta'lim ko'priklaridan. Shuningdek, Rossiya oliy ta'lim muassasasining mamlakatimizda ochilgan birinchi vakolatxonasi. 1995-yili tashkil etilgan filial 2025-yilda o'zining 30 yilligini yangi ilmiy-ta'lim yutuqlari bilan munosib nishonladi hamda iqtisodchilar, moliyachilar, boshqaruvchilar, mehnat bozori, ijtimoiy-mehnat munosabatlari va inson kapitali sohasidagi mutaxassislarni tayyorlaydigan nufuzli markaz sifatidagi maqomini yanada mustahkamladi.

O'tgan uchta o'n yillik davomida G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali minglab bitiruvchilarni tayyorladi. Ular bank tizimi, davlat boshqaruvi organlari, tadbirkorlik sektori, oliy ta'lim, ilmiy muassasalar, xalqaro tashkilotlar va yirik milliy korxonalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha qo'shma onlayn-platforma yaratish tashabbusi ham alohida e'tiborga loyiq. Bunday platforma ta'lim, professional tayyorgarlik va mehnat bozorini o'zaro bog'lashi mumkin. U ta'lim dasturlari, til kurslari, AT yo'nalishlari, muhandislik modullari, qayta tayyorlash, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va ish beruvchilarga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoniyatlarini qamrab olishi maqsadga muvofiq. O'zbekiston uchun bu juda muhim. Chunki chekka hududlardagi yoshlar yirik shaharlarga zudlik bilan ko'chib o'tmasdan ham zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Forumda belgilab berilgan muhim yo'nalishlardan yana biri raqamlashtirishdir. Bugun raqamli platformalar iqtisodiyotning yangi infratuzilmasiga aylanmoqda. XXI asr infratuzilmasiga nafaqat yo'llar, elektr



**Akbarxon SOBIRXONOV, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining Kreativ loyihalar va muhandislikni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi**

Ta'lim diplomatiyasi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning eng ta'sirchan va uzoq muddatli mexanizmlaridan. Shuningdek, mamlakatlarni nafaqat iqtisodiy, balki intellektual jihatdan ham yaqinlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarda ta'lim diplomatiyasi strategik sheriklikning muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotir.

Prezidentimizning Peterburg xalqaro iqtisodiy forumidagi ishtiroki va ilgari surgan tashabbuslari ikki mamlakat munosabatlarining yangi bosqichga ko'tarilganini yana bir bor namoyon qildi. Davlatimiz rahbari bugun iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri inson kapitali ekanini ta'kidladi. Zero, zamonaviy dunyoda iqtisodiy qudrat, avvalo, yuqori malakali mutaxassislar, raqobatbardosh ta'lim tizimi va ilmiy innovatsiyalar bilan belgilanadi.

O'zbekiston va Rossiya aloqalari an'anaviy iqtisodiy doiradan chiqib, keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Bugun ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash qiymati 13 milliard dollarga yetgan bo'lsa, qo'shma investitsiya loyihalar portfeli 10 milliard dollardan oshgan. Shuningdek, hududlararo hamkorlik doirasidagi loyihalar qiymati 10 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda. Bu raqamlar iqtisodiy hamkorlik ko'laminin ko'rsatish barobarida mazkur jarayonni ta'minlaydigan yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj ham yaqqol namoyon etadi. Aynan shu nuqtayi nazardan, ta'lim diplomatiyasi iqtisodiy sheriklikning intellektual tayanchi sifatida maydonga chiqmoqda.

Bugun O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan 32 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining qariyb yarmi Rossiyanning nufuzli universitetlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Jumladan, Moskva davlat universiteti, Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, MISIS milliy texnologiyalar universiteti, MEI milliy tadqiqot universiteti va boshqa qator yetakchi oliygo'har filiallari mamlakatimizda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur filiallar faoliyati nafaqat zamonaviy bilim berish, balki ilg'or ta'lim standartlari, innovatsion yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlarni milliy ta'lim tizimiga joriy qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, muhandislik, energetika, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, sun'iy intellekt va sanoat sohalari uchun kadrlar tayyorlashda ushbu hamkorlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Peterburg forumida ilgari surilgan "Yevrosiyo texnologik sanoatlashtirish kamari" tashabbusi ham ta'lim diplomatiyasining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Chunki mazkur loyihaning muvaffaqiyati, birinchi navbatda, yuqori malakali muhandislar, texnologlar, dasturchilar va tadqiqotchilarni tayyorlash bilan bog'liq. Tadqiqotdan tortib, tayyor mahsulotni

tashqi bozorlarga chiqarishga bo'lgan to'liq ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish uchun yangi avlod mutaxassislari zarur. Shu bois, bugun ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida qo'shma ta'lim dasturlari, ikki diplomli ta'lim tizimlari va akademik mobillik dasturlari kengayib bormoqda. O'zbekistonlik talabalar Rossiyaning yetakchi universitetlarida tahsil olish imkoniyatiga ega. Rossiyalik professor-o'qituvchilar esa mamlakatimiz oliygo'harida ta'lim jarayonlarida ishtirok etmoqda. Bu esa bilimlar almashinuvini kuchaytirish va ta'lim sifatini oshiradi.

Bugun O'zbekiston va Rossiya olimlari ishtirokida sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, energetika, tibbiyot, biotexnologiya, ekologiya va qishloq xo'jaligi sohalarida qator qo'shma tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Ushbu hamkorlik ilmiy natijalarni tijoratlashtirish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish va iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish uchun mustahkam asos bo'ladi.

Forumning muhim natijalaridan biri sifatida Prezidentimiz taklif etgan inson kapitalini rivojlantirish qo'shma onlayn-platformasi tashabbusini ham qayd etish lozim. Mazkur platforma ta'lim muassasalari, ish beruvchilar va yosh mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, u mehnat bozori talabalarini tahlil qilish, zamonaviy kasb va kompetensiyalarni shakllantirish hamda ta'lim mazmunini iqtisodiyot ehtiyojlariga muvofiqlashtirish imkonini yaratadi.

Tashabbusning yana bir muhim jihati mehnat migratsiyasining sifat ko'rsatkichlarini oshirish bilan bog'liq. Agar ilgari mehnat migratsiyasi asosan jismoniy mehnat resurslari harakati bilan tavsiflangan bo'lsa, mazkur platforma yuqori malakali muhandislar, dasturchilar, tadqiqotchilar va texnologlarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida platforma masofaviy bandlik imkoniyatlarini kengaytirishda qo'l keladi. Bu esa kelgusida intellektual xizmatlar eksporti, jumladan, AT xizmatlari, raqamli konsalting, muhandislik yechimlari va ilmiy tadqiqotlar eksportini ko'paytirish uchun juda muhim.

Keyingi yillarda Rossiya raqamli iqtisodiy doiradan chiqib, keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Bugun ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash qiymati 13 milliard dollarga yetgan bo'lsa, qo'shma investitsiya loyihalar portfeli 10 milliard dollardan oshgan. Shuningdek, hududlararo hamkorlik doirasidagi loyihalar qiymati 10 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda. Bu raqamlar iqtisodiy hamkorlik ko'laminin ko'rsatish barobarida mazkur jarayonni ta'minlaydigan yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj ham yaqqol namoyon etadi. Aynan shu nuqtayi nazardan, ta'lim diplomatiyasi iqtisodiy sheriklikning intellektual tayanchi sifatida maydonga chiqmoqda.

Bugun O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan 32 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining qariyb yarmi Rossiyanning nufuzli universitetlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Jumladan, Moskva davlat universiteti, Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, MISIS milliy texnologiyalar universiteti, MEI milliy tadqiqot universiteti va boshqa qator yetakchi oliygo'har filiallari mamlakatimizda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur filiallar faoliyati nafaqat zamonaviy bilim berish, balki ilg'or ta'lim standartlari, innovatsion yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlarni milliy ta'lim tizimiga joriy qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, muhandislik, energetika, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, sun'iy intellekt va sanoat sohalari uchun kadrlar tayyorlashda ushbu hamkorlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Peterburg forumida ilgari surilgan "Yevrosiyo texnologik sanoatlashtirish kamari" tashabbusi ham ta'lim diplomatiyasining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Chunki mazkur loyihaning muvaffaqiyati, birinchi navbatda, yuqori malakali muhandislar, texnologlar, dasturchilar va tadqiqotchilarni tayyorlash bilan bog'liq. Tadqiqotdan tortib, tayyor mahsulotni

www.yuz.uz yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz.uz\_news

Innovatsion o'sish modeli

UNIVERSAL

INSTITUTSIONAL MEKANIZM

"5T" tamoyilining mohiyati nimada?



Sohibjon TOPILDIYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hozir oliy ta'lim tizimida "5T" iborasi ko'p qo'llanilmoqda. Bu nimani anglatadi? Prezidentimizning 2026-yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida qo'llanilgan mazkur iboraga oliy ta'lim sohasidagi ishlohtlarning sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab beruvchi omil sifatida qaralmoqda. Chunki u "5T — ta'lim, tarbiya, tadqiqot, tijoratlashtirish va tizimli takomillashtirish" modeli asosida rivojlantirishni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilab, oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatiga yangi konseptual yondashuvni joriy etdi.

Mazkur modelning asosiy mohiyati oliy ta'lim tizimini faqat o'quv jarayoni doirasida emas, balki shaxs kamoloti, ilmiy salohiyat, iqtisodiy samaradorlik va boshqaruvning kompleks integratsiyasi asosida rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu yondashuv universitetlarni klassik ta'lim muassasidan ko'ra kengroq — ilm-fan, innovatsiya, iqtisodiyot va jamiyat integratsiyasini ta'minlovchi ko'p funktsiyali strategik institutga aylantirishni nazarda tutadi. Natijada oliy ta'lim tashkilotlari ta'limdan tashqari yangi bilimlar yaratuvchi, ijtimoiy qadriyatlar shakllantiruvchi va iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi subyekt sifatida shakllanadi.

"5T" modeli oliy ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishning universal institutsional mexanizmi bo'lib, u ta'lim sifati, tarbiyaviy samaradorlik, ilmiy faoliyat, innovatsion iqtisodiyot va boshqaruv tizimini yagona strategik platformaga birlashtiradi. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim tashkilotlarining akademik mustaqilligi, tashkiliy samaradorligi va moliyaviy barqarorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur modelning konseptual ustunligi shundaki, unda oliy ta'lim sifati ko'p omilli tizim sifatida talqin qilinadi. Natijadorlik ilmiy mahsuldorlik, innovatsion faollik, ma'naviy-tarbiyaviy samaradorlik hamda boshqaruv sifati bilan ham belgilanadi.

Bu modelning birinchi va fundamental komponenti bo'lgan ta'lim (ta'lim sifati va akademik rivojlanish) oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi. Ta'lim zamonaviy jamiyatda inson kapitalini shakllantiruvchi, iqtisodiy taraqqiyotning intellektual bazasini yaratuvchi va ijtimoiy modernizatsiyani ta'minlovchi ustuvor omil sifatida e'tirof etiladi. Ilmiy nuqtayi nazaridan, ta'lim jarayoni shaxsning kasbiy kompetensiyalari, tahilliy tafakkuri, kreativ salohiyati va moslashuvchanligini rivojlantirishga qaratilgan ko'p bosqichli tizimdir. Shu ma'noda, oliy ta'lim tashkilotlarida sifati ta'limni ta'minlash



o'quv dasturlarining xalqaro standartlarga mosligi, kredit-modul tizimi samaradorligi, akademik mobillik, dual ta'lim, masofaviy ta'lim texnologiyalari, individual ta'lim trayektoriyasi va natijaga yo'naltirilgan baholash mexanizmlarini joriy etish bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan, "student-centered education", ya'ni talabaga yo'naltirilgan ta'lim modeli "5T"ning ta'lim komponenti markazida turadi. Bunda talabalar passiv bilim oluvchi emas, balki bilim yaratish jarayonining faol subyekt sifatida qaraladi. Natijada oliy ta'lim sifati nazariy bilimdan amaliy kompetensiyaga, standart o'qitishdan individual rivojlanishga transformatsiyalanadi.

Tarbiya oliy ta'lim tizimining ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy yo'nalishini belgilaydi. Tarbiya tushunchasi ilmiy-pedagogik jihatdan shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviy barkamolligi, qadriyatlar tizimi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy globalashuv sharoitida oliy ta'lim

muassasalari oldida nafaqat malakali mutaxassis, balki yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, vatanparvar va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirish vazifasi turadi. Shu bois, "tarbiya" komponenti talabalarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, huquqiy madaniyat, korruptsiyaga qarshi immunitet, mafkuraviy barqarorlik va global fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Tarbiya jarayonining institutsional asosida yo'lga qo'yilishi esa universitetlarni ma'naviy-intellektual makonga aylantiradi.

Zamonaviy universitet modeli ilmiy tadqiqotlarsiz to'laonli rivojlana olmaydi. Chunki ilm-fan oliy ta'lim sifatining eng muhim indikatorlaridan biridir. Tadqiqot professor-o'qituvchilar va talabalar ilmiy faolligini oshirish, fundamental hamda amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish, ilmiy laboratoriyalar tashkil etish, xalqaro grantlar jalb qilish, doktorantura tizimini kuchaytirish, ilmiy klasterlar yaratish hamda universitet — fan — ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali amalga



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

oshiriladi. Jahon tajribasida bu universitetlarning xalqaro reytinglardagi o'mini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, farmonda ilmiy klasterlar va innovatsion markazlar tashkil etishga alohida urg'u berilishi O'zbekiston oliy ta'lim tizimini ilm-fanga asoslangan taraqqiyot modeliga o'tkazishdan dalolat beradi. Tadqiqot faoliyatining rivojlanishi ta'lim sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, o'quv jarayonining ilmiylik darajasini oshiradi.

Ilmiy bilimlarning iqtisodiy qiymatiga aylanishi bugungi bilimlar iqtisodiyoti sharoitida oliy o'quv yurtlari faoliyatining muhim ko'rsatkichiga aylanoqda. Tijoratlashtirish ilmiy ishlanmalar, startaplar, texnologik yechimlar, patentlar va innovatsion mahsulotlarni bozorga chiqarish orqali universitetlarning moliyaviy mustaqilligi va iqtisodiy faolligini oshiradi. Bu jarayon texnoparklar, biznes inkubatorlar, akseleratorlar, venchur investitsiyalar va texnologiyalar transferi mexanizmlari orqali kechadi. Tijoratlashtirish o'quv dargohini nazariy bilim ishlab chiqaruvchidan innovatsion mahsulot yaratuvchi iqtisodiy subyektga aylantiradi. Shu orqali oliy ta'lim tashkilotlari mamlakat innovatsion

ekotizimining faol ishtirokchisiga aylanadi. Mazkur yo'nalish ilm-fan natijalarining real sektor bilan integratsiyasini kuchaytirib, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Har qanday islohotning muvaffaqiyati samarali boshqaruv, monitoring va strategik rejalashtirish bilan chambarchas bog'liq. Tizimli takomillashtirish oliy ta'limda sifat menejmenti, institutsional audit, KPI indikatorlari, xalqaro akkreditasiya, raqamli boshqaruv hamda akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillik mexanizmlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Uning asosiy vazifasi oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini uzluksiz monitoring qilish, samaradorlikni baholash va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashdir. Tizimli yondashuv orqali universitet boshqaruvi zamonaviy korporativ boshqaruv standartlariga yaqinlashadi. Natijada oliy ta'lim tizimida shaffoflik, javobgarlik, moslashuvchanlik va strategik barqarorlik kuchayadi.

"5T" modeli o'z mohiyatiga ko'ra oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning kompleks strategik modeli bo'lib, unda ta'lim bilim va kompetensiyani, tarbiya ma'naviy-axloqiy barkamolligini, tadqiqot ilmiy salohiyatini, tijoratlashtirish innovatsion-iqtisodiy natijadorlikni, tizimli takomillashtirish esa institutsional samaradorlikni ta'minlaydi. Mazkur komponentlarning o'zaro uyg'unligi oliy ta'lim tashkilotlarini xalqaro raqobatbardosh, ilmiy-intellektual va innovatsion markazlarga aylantirishga xizmat qiladi. Aynan shu jihatdan "5T" modeli yangi O'zbekiston oliy ta'lim siyosatining metodologik asosi sifatida nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki mamlakatning uzoq muddatli intellektual va innovatsion taraqqiyotini ta'minlashning ustuvor strategik mexanizmi hisoblanadi.

SAN'AT INSON QALBining TARBIIYACHISIDIR

Hind shoiri va mutafakkiri Rabindranat Tagorning "Inson o'z qalbini boyitmas ekan, dunyoni boyitmaydi", degan hikmatli so'zlari oradan necha yillar o'tgan bo'lsa-da, hali ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Inson qalbi ma'rifat, ezgulik, mehr-oqibat va ma'naviy boyliklar bilan to'limasa, u atrofidagi olamga ham yaxshilik va nur ulashmaydi. Qalbi boy insonning so'zida hikmat, amalida baraka, munosabatida mehr va insoniylik namoyon bo'ladi. Ana shunday insonlarga jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shib, ma'naviyat va madaniyat rivojiga xizmat qiladilar. Shu ma'noda, Prezidentimizning adabiyot, madaniyat va san'at vakillari bilan uchrashuvi xalqimiz ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim tarixiy ahamiyat kasb etadi.



Munira RAMAZONOVA, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

madaniyat va san'atning jamiyat hayotidagi o'rini mustahkamlash kabi muhim vazifalar belgilangan. Ayniqsa, umumta'lim maktablarda musiqa, tasviriy san'at va texnologiya fanlarini yangi "ART" dasturi asosida o'qitish tashabbusi ta'lim tizimidagi muhim yangilik sifatida e'tiborga molik.

Ushbu farmon mening ham ko'p yillik ilmiy izlanishlarim bilan hamohang ekanidan quvonim. Bir necha yil davomida artpedagogik texnologiyalar vositasida o'smirlarni ma'naviy-estetik tarbiyalash mavzusida ilmiy tadqiqot qildim. Tadqiqot jarayonida Toshkent, Buxoro va Namangan shaharlaridagi qator maktablarda tajriba-sinov ishlarini amalga oshirib, san'atning o'smirlar tarbiyasidagi ta'sirini chuqur o'rgandim. Ayniqsa, buyuk muharrir ijodi bilan tanishish, tasviriy san'at asarlarini tahlil qilish va ular orqali insonparvarlik, mehr-oqibat, Vatanga muhabbat, tabiatga ehtiromlar kabi fazilatlarini shakllantirish yoshlar ongiga juda tez va samarali ta'sir ko'rsatishini kuzatdim. Shu asosda artpedagogik model ishlab chiqildi. Uning mazmun-mohiyati Sharq va G'arb allomalarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, zamonaviy artpedagogika va arterapiya sohasidagi ilmiy yondashuvlar hamda milliy qadriyatlarimiz uyg'unligiga asoslanadi. Mazkur model 12-14 yoshli o'smirlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda san'atdan samarali foydalanish imkonini beradi. Bolaning hayotiga sinchovlik

Munosabat

bilan nazar tashlasak, u hali harflarni tanimasdan, so'zlarni o'qishni bilmadan turib o'z ichki olamini ifoda etishga intiladi. Qo'lga qalam olgan zahotiyog qog'ozda turli chizgilar, shakllar va ranglar orqali tasavvurlarini aks ettirishga harakat qiladi. Bu esa inson qalbidagi ijodkorlik hissi tug'ma ne'mat ekanidan dalolat.

Bejiz xalqimiz "Bolang toshbag'ir bo'lmasin desang, uning qo'lga dutor tut", deb aytmagan. Zero, musiqa, san'at va adabiyot inson qalbini yumshatadi, unda mehr-shafqat, nafasot va ezgulik tuyg'ularini kamol toptiradi. San'at bilan oshno bo'lib ulg'aygan boladan hech qachon yomonlik chiqmaydi. U hayotning go'zalliklarini teranroq his etadi, atrofdagilarga mehr va hurmat bilan munosabatda bo'ladi.

Bolaning ma'naviy kamolotiga qaratilgan har bir e'tibor kelajakka qo'yilgan mustahkam sarmoyadir. Ularni san'at, adabiyot va musiqa oshno etish orqali biz nafaqat iste'dodli avlodni, balki yuksak ma'naviyatli, mehribon va vatanparvar insonlarni ham tarbiyalaymiz. Chunki qalbi go'zal insonlar ko'p bo'lgan jamiyatning kelajagi porloq va barqaror bo'ladi.

Mamlakatimizning ma'naviyati qay darajada rivoj topsa, xalqning dunyo miqyosidagi obro'-e'tibori shuncha yuksaladi, uning so'zi va sadosi jahon maydonida tiniq va ta'sirchan yangraydi. Shu bois, madaniyat va san'atga e'tibor nafaqat ma'naviy taraqqiyot, balki millatning kelajakdagi nufuzi va barqarorligiga qo'yilgan mustahkam poydevordir.

Farmonga muvofiq, teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg'u san'ati, tasviriy va amaliy san'at kabi 21 ta yo'nalish bo'yicha ijodiy birlashmalar tashkil etilishi soha taraqqiyoti uchun muhim qadam bo'ladi. Zero, iste'dodli yoshlarni mahallalardan kashf etish, iqtidorini ro'yobga chiqarish va ma'naviy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan muloqot yangi tizim yo'lga qo'yilmoqda. Endi biz, ijodkorlar, olimlar va pedagoglar birlashib harakat qilsak, yangi O'zbekistonning ma'naviy poydevori yanada mustahkamlanadi. Modomiki, Vatanga muhabbatli, milliy qadriyatlarga sodiq, zamonaviy bilim va kreativ tafakkurga ega yosh avlodni tarbiyalashda san'atning o'rni beqiyos ekan, biz, ijodkorlar oldimizga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun betinim mehnat qilishimiz zarur. Zero, san'at inson qalbini tarbiyalaydi, uni ezgulikka chorlaydi.

Davlatimiz rahbari 1-iyun kuni adabiyot, madaniyat va san'at sohasi xodimlari bilan o'tkazgan uchrashuvning yakuniga qadar barcha ishtirokchilar kabi to'liqlanib o'tirdim. Zotan, mamlakat rivoji, xalqning ma'naviy ehtiyoji adabiyot, ijod bilan chambarchas bog'liq. Prezidentimiz mazkur muloqotdan maqsad sohadagi muammolarga yechim topish hamda adabiyot, madaniyat, san'at va kreativ iqtisodiyotda yangi muhit yaratadigan katta tashabbuslarni boshlab berish ekanini ta'kidladi. Ayni paytda mazkur uchrashuv davomida ushbu sohalar yanada rivojlanishi, qadr topishi uchun ko'plab imtiyozlar berilishi ma'lum qilindi.

YUKSAK EHTIROM SHUKUHI



Jumladan, adabiyot sohasida yuqori darajada e'tirof etilgan badiiy asarlar mualliflari, ijod mahsuli teatr va kinoda sahnalashtirilgan, she'rlari go'shiqqa aylangan shoir, yozuvchi va dramaturgi mehnati munosib qadr topadigan bo'ladi. Bunday yuksak e'tirofga sazovor mualliflarga yil davomida har oyda 5 million so'mdan qalam haqi beriladi, O'zbekiston bo'yab samolyot, poyezd va jamoat transportidan bepul foydalanadi. Ixtisoslashgan tibbiyot markazlarida davolanish xarajati to'liq byudjet hisobidan qoplanadi. Qolaversa, ularning mahorat maktabi va ijod uylari tashkil etiladi.

Uchrashuvda adabiyot sohasi vakillari uchun munosib ijodiy muhit, sharoit yaratish va rag'batlantirish bo'yicha yangi imkoniyatlar taqdim etildi. Endi iqtidorli ijodkorlarga yiliga kamida 50 ta eng sara asar uchun buyurtma berish an'anasi yo'lga qo'yiladi. Har yili o'zbek adabiyotining eng yaxshi 10 ta asari xorijiy tillarga tarjima qilinadi va mualliflar ishtirokida chet ellarda taqdimoti o'tkaziladi.

Albatta yaxshi asar yozish oson emas. Ayni paytda uni nashr etish moddiy xarajat sabab katta muammoga aylangan edi. Bundan buyon Yozuvchilar uyushmasi tavsiyasi asosida chop etiladigan kitoblarning qog'oz bilan bog'liq xarajatini hukumat qoplab berishi davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan mustahkamlab qo'yildi. Shu bilan birga, ko'plab eng sara loyihalar davlat hisobidan moliyalashtirildi.

Har yili faoliyatida yaxshi natijaga erishgan 1000 nafar atrofida soha xodimi davlat tibbiy yuz ta'lim jamg'armasi hisobidan bepul davolanadi. Yana 2000 ijodkorga davlat tomonidan tibbiy sug'urta paketi taqdim etiladi. Soha bo'yicha kamida 10 yil ishlagan xodimlarga sanatoriyaga bepul yo'llanma beriladi. Aynan shu yo'llanma berish tartibi joriy etilganini eshitib, uzoq yillar millat adabiyoti va madaniyati rivoji yo'lida zahmat chekkan ustozlarning qo'li duoga ochildi, yoshlarning g'ayrati jo'sh urdi.

Endi aeroport, vokzal, metro, park, yirik savdo-servis obyektlari, kafe va restoranlarda milliy kuy-qo'shiqlarimiz yangraydi. Yurtimiz ostonasidan kirayotgan har bir mehmon milliy kuy va ona tilimiz tarannumidan bahra olib,



Dilshoda ERGASHEVA, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Farg'ona viloyati bo'limi rahbari

qadriyatlarimizga qiziqishi va hurmati yanada oshadi, albatta.

Jamiyatimiz taraqqiyotida juda muhim bo'lgan bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Ba'zan bizda milliy ruh yetishmaganday bo'lyapti. Sahna asarlari bor, lekin kuchli ta'siri yo'q. Qo'shiqda ovoz bor, lekin xalqning o'tkir nafasi sezilmayapti. Kinoda harakat bor, lekin xalqning dardi, g'ururi va xarakteri ko'rinmayapti. Ba'zi asarlarda shakl bor, lekin katta g'oya yo'q. Milliy o'zligimiz va nihiyatimizni ifodalash uchun ijod va san'atdan ta'sirlroq va kuchliroq vosita yo'q, desam fikrimga qo'shilsizlar. Shu bois, bizga milliy ruhni uyg'otadigan san'at kerak, xalqni ilhomlantiradigan adabiyot kerak, yoshlarga faxr va iftixor beradigan kino kerak, qalblarni jumburga keltiradigan musiqa kerak, odamning o'zini anglashga undaydigan teatr kerak, — dedi Prezidentimiz.

Bu gaplar, davlatkor so'zlar xalqimiz ko'nglida Vatanga muhabbat, millatga sadoqat ruhini uyg'otadigan, katta-katta islohotlarni odamlarga yetkazib beradigan qasida, qo'shiq va romanlar, spektakl va filmlar yaratadigan ijodkorlarning ko'ngil ummonini uyg'otdi. Shu bois, har yili mazkur yo'nalishda tanlovlar o'tkazib boriladi. Gran-pri sohiblarining ijodini yanada qo'llab-quvvatlash uchun grantlar ajratiladi.

Uchrashuv ma'na'oda tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ijod ahlini qo'llash, sohadagi muammolarni yechimiga oid har bir masalaga alohida yondashildi. Endi yozadigan, yozganda ham yonib, so'zni bayroq, qalarni mash'ala qilib yozadigan payt keldi. Insoniyat o'zi sevgan, dilidagini kitobidan topgan ijodkorga ergashadi. O'qimshni gapirtirsa, vatandoshlarimiz qanchadan-qancha ulug' adiblarning so'zini ko'ngliga tutur, yozganini hayotiga shior qilgan. Shunday yuksak e'tibor, dorilamon kunlardan ilhom olib, biz — ijod ahli belni yanada mahkam bog'lab, oqoyatgan daryolar mavji, shiddatini butun asarlarimiz bilan dunyoga ko'rsatish, yurdoshlarimizga yangi, yaxshi kitoblarimiz bilan yuzlanish fursati keldi.



## Ezgu tashabbus

## BU YURTTA KITOBGA HAYKAL QO'YILGAY!

Orif TO'XTASH,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi

## Ulug'vor maqsadlar sari

Yaqinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O'zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha umummilliy harakatga start berildi. Bu tadbir yurtimizning barcha hududlarini qamrab olib, maktablar, oilalar va butun jamiyatda kitobxonlik muhitini kuchaytirishga, yoshlar qalbida yangi bunyodkorlik ruhini uyg'otishga xizmat qiladi, albatta.

Prezidentimizning "Men ushbu dasturni shunchaki kitob o'qish musobaqasi emas, balki jonajon Vatanimiz kelajagi uchun strategik investitsiya deb bilaman. Agar biz bugun bolalarimizning qo'lga yaxshi kitob bersak, ertaga ular Yangi O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo etishga albatta qodir bo'ladi. Shuning uchun barchangizni ushbu umumxalq harakatida faol ishtirok etishga chaqiramiz", degan e'tirofi har bir yurtparvar yurakni to'liqlantirgan rosti.

Joriy yil 3-iyun kuni mazkur umummilliy harakatni Samarqand viloyati boshlab berdi. Kitobxonlik festivali ko'ha Samarqand shahrida emas, balki qadimiylikda u bilan tengdosh deb e'tirof etiladigan Ishtixonda boshlandi.

## "Ikki daryo yuvar kokilin..."

Ona yurt haqida chiroyli tashbehlar axtarib turganimda xayolimga atoqli shoirimiz Hamid Olimjonning ushbu mashhur misralari keldi: O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston, Dostonlarga bitgan guliston — O'zbekiston deya atalar, Uni sevib el tilga olur. Chiroylidir go'yo yosh kelin, Ikki daryo yuvar kokilin...

O'zbekiston zamini ko'plab manbalarda Movarounnahr, ya'ni ikki daryo — Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan tarixiy-geografik mintaqaga sifatida tilga olinadi. Ishtixon esa qadimda Miyonqol nomi bilan mashhur bo'lib, Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryo tarmoqlari oralig'ida joylashgan. Men Ishtixon zaminini "Vatan ichra mo'jaz Vatanim!" deya ardoqlab, mazkur misralarni baralla aytgim keldi:

Quchoq'ingni quvonchga  
To'ldirsam shavqim bilan,  
Amuga Sir so'zlasam  
Zarafshon zavqim bilan,  
Quchoq'ingda barq urur  
Obod turmush, gul hayot,  
Sen yuksalib borursan  
Bunyodkor xalqing bilan!..

Ha, bugun Ishtixon rostakamiga zamonga mos ravishda ko'rkam qiyofa kasb etib bormoqda! Kitobxonlik festivali ham Ishtixon shahriining naq yuragi bo'lmish Ustozlar xiyoboniga uzukka ko'zdek yarashib tushgan kitob monumentini ochish bilan boshlandi. Bir qarashda kitobning tinq sahifalarini munosib gavdalanitira olgan oppoq tosh ham bu zamonga begona emas. Ulkan kitobning jussasi shu yaqin oradagi Oqto'v tizmalaridagi oq rangli marmar kuni karyerlaridagi toshlardan taroshlangan.

## "Kitobdan minnatdorman"

Mashhur ijodkorlardan biri "Men o'zimdagi barcha yaxshi fazilat va xislatlar uchun kitobdan minnatdorman", degan edi. Demakki, yurtimizda boshlangan umummilliy harakatdan ko'zlangan maqsad ham, shubhasiz, juda ulkan va ko'rkam!

Yana Ustozlar xiyoboniga qaytamiz. Bundan 50 yillar muqaddam Ishtixon tumaniga rahbarlik qilgan Murod Jo'rayev tashabbusi bilan bunyod qilingan ushbu istirohat bog'i, ayniqsa, harorati baland yoz kunlarida dam oluvchilarni har laha o'ziga chorlab turadi. Chunki bu manzilda aholi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Xiyobon o'rtasida mo'jazgina kutubxona tashkil qilingan bo'lib, soya-salqin o'rindiqlarda kitob mutolaa qilib turgan yoshlarni ko'rib yanada zavqning ortadi.

"Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat!" shiori ostida mazkur bog'da o'tkazilayotgan kitob festivalini bir so'z bilan ma'rifat va tafakkur maydoni deb atash mumkin. Zero, tadbir doirasida tashkil etilgan til bo'yicha savodxonlik tanlovlari, ijodiy uchrashuvlar hamda "Zakovat" intellektual bellashuvlari bu yerga jam bo'lganlar ko'ngliga kelgusi yong' kunlarga yanada umid uyg'otganiga aslo shubha yo'q. Tadbir yuzlab o'quvchi yoshlar, ustozlar, ota-onalar va keng jamoatchilikni jamlagan holda juda ko'tarinki ruhda boshlandi. Samarqandning har bir tumani uchun alohida



pavilyonlar bunyod qilinib, javon-javon kitoblar va ular qarshisida g'ujg'on yoshlarni ko'rib ko'zing quvnaydi.

Poytaxt — Toshkentni azimdan tashrif buyurgan mehmonlardan biri, Respublika Ma'naviyat va mad'rat markazi rahbari Otobek Hasanov ayni damdagi ko'ngil kechinmalarini bunday bayon qildi:

— Rostini aytсам, hammasidan ham ko'ra, peshoqiga "Kitobxon oila" deb bitilgan pavilyon menga juda ma'qul bo'ldi. Bunday kitobxon bobo va buvi hamda nabiralarning maroqli mutolaa bilan mashg'ulligi manzarasi, to'g'risi, meni hayratga soldi. Agar rassom bo'lganimda, bu manzarani boshqacha mehr bilan, albatta, qog'ozga muhrlagan bo'lardim. Biz har bir mahallada mana shunday oilalarni ko'paytirishimiz kerak. Kitob o'qigan, bilimga intilgan millat hech qachon yengilmasligini, qolaversa, "ilmdan boshqa najot yo'q"ligini hayotiy misollar asosida hikoya qilib bera oladigan nuroniyalarimiz bugun qattiq suyanmog'imiz shart, nazariyda. Qolaversa, bugungi axborot xurujlari, ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizga turli tahdidlar mavjud davrda ma'naviyat uch yo'rt'it so'z ishlaidigan soha emas, u 24/7 rejimida ishlashi zarur! Bu esa, shubhasiz, aholi o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bilan amalga oshadi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi rahbari Umida Teshaboyeva festival jarayonlarini kuzata turib, o'z taassurotlarini bunday izohladi:

— O'zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha umummilliy harakatga start berilgan ayni muddao bo'ldi. Chunki buyuk ajdodlarimiz dunyo ilmi peshvolari sifatida e'tirof etib kelinadi. Demak, biz ham ularning davomchilari bo'lib, ma'rifat orqali o'zimizning munosib so'zimizni ayta olmog'imiz kerak. Yaqinda Prezidentimiz adabiyot, madaniyat va san'at namoyandalari bilan bo'lgan uchrashuvda sohada kutilayotgan katta yangiliklar haqida gapirib o'tdi. Mana,

oilaviy korxonasi rahbari Nodira Esonboyeva. — O'zim o'qituvchiman, lekin yoshligimdan kitob yiqqanman, ularni asrab-avaylab kelganman. O'sha yillari qarasam, uyimda 5 mingga yaqin sara kitob yig'ilib qolgan ekan. Xayolimga ishdan bo'sh vaqtlarimda odamlarga kitob tarqatam-chi degan bir g'oya keldi. Qo'limga ikkita sumka olib, har birida 20 tadan 40 kitob solib, avval Ishtixon tumanimizdagi turli tashkilot, korxonalariga kirib, kitob tarqatdim. Muayyan muddatdan keyin kitoblarni olib ketdim, tabiiyki, ozroq mablag' evaziga. Buni qarangi, odamlarning kitob o'qishga qiziqishi kuchli ekan. "Yana keling", deb qolishdi. Shu tariqa men qatnaydigan korxonalar soni ko'paydi, geografiasini ham kengaya boshladi. To'g'risi, bundan katta daromad qilib bo'lmaydi, lekin shu kitoblar bo'sh yotmagani, odamlar uni o'qiyotgani menga ko'proq zavq berardi. Keyinchalik ishimni kengaytirmoqchi bo'lib, viloyat hokimiga imtiyoz so'rab murojaat qildim. Axir men tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tolmayman, faoliyatim daromadga mo'ljallanmagan. Shundan keyin menga bu borada yo'l-yo'riqlar ko'rsatildi, "Labo" rusumli avtomobilni imtiyozli xarid qildim va kutubxonachilikni oilaviy tadbirkor sifatida davom ettirib kelmoqdaman.

## Festivalning xorijlik ishtirokchilari

— Biz ushbu tumanda shu yil ish boshladik va bunday kitobxonlik tadbiri o'tkazilayotganidan juda xursandmiz, — deydi festival ishtirokchisi, Samarqand xalqaro kolleji rahbari, xitoylik Shu Shu. — Chunki bizning mamlakatimizda ham kitobxonlik juda rivojlangan. Har oyning 24-sanasi kitobxonlik kuni sifatida belgilangan va bu kunda doim kitobsevarlar yig'ilishib, o'zlar o'qilgan asarlari, ularning qahramonlari haqida suhbat qurishadi. Qolaversa, bizda kitob o'qigan, bilimlisona munosabat boshqacha, ya'ni odamlarning tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki asosan bilimiga baho berishadi va shunga qarab munosabat o'zgaradi. Shuning uchun ko'pchilikda kitob o'qishga, o'zini rivojlantirishga intilish kuchli.

O'zim haqimda to'xtaladigan bo'lsam, kitob hayotimning keskin o'zgarishiga yordam bergan. Chexka qishloqda tug'ilib o'sgan oddiygina qizaloq aynan kitoblar orqali bugun katta kompaniyalarga ega bo'ldim. O'z tadbirkorlik sohamni yuritish barobarida qiziqishlarim bo'yicha ham ishlamoqdaman.

## "Tug'romda Humo qushi"

Bir so'z bilan aytganda, kun davomida qaynoq mushoiralar, asarlarga oid sahna ko'rinishlari, yosh baxshilardan yangi aytimlar, sozandayo xonandalarning mumtoz ijrolari, qolaversa, zukko kitobxon yoshlar bellashuvlari hamda

## Kitob tarqatgan muallim

Bugungi kunda mamlakatimizda bor-yo'g'i oltita xususiy kutubxona mavjud. Ularning ittisi Ishtixon tumanida joylashgan. — 2000-yillarda kutubxonalar faoliyati anchagina murakkab holga tushgan, kitoblar kam, borlarining aksariyati xarob ahvolga kelib qolgandi, — deydi "Nodirabonu kutubxonasi"

## SANGARDAK — TOG' BAG'RIDAGI TURIZM MO'JIZASI



## Farovonlik xaritasi

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi Sangardak qishlog'i nafaqat ekoturizm, balki sayyohlikning ziyorat, etno, tibbiyot, agro kabi noyob turlarini rivojlantirish uchun ham qulay muhitga ega. Ammo uzoq yillar hududning bunday imkoniyatlaridan foydalanilmadi. Xizmat ko'rsatish, infratuzilma kabi muhim masalalar e'tibordan chetda qoldi.

Prezidentimizning 2024-yil 16-dekabrda "Surxondaryo viloyatining tog'li-rekreasion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida tog'li hududning turizm imkoniyatini bor bo'y-basti bilan namoyon etadigan, sayyohlar uchun jozibali va unutilmas manzil bo'lgan

yirik majmua — Yangi Sangardak barpo bo'la boshladi.

— Qarorga ko'ra, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda zamonaviy master-reja ishlab chiqildi. Unga asosan, 615 gektar maydonda sayyohlik markazi bunyod etiladi. Uning qurib, ishga tushirish uchun esa 913 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltiriladi, — deydi Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish direksiyasi bosh muhandisi Zafar Mo'minov. — Sangardakda 3,2 kilometrli dor yo'li ishga tushirildi. Kapsula uylar, bungalolar, mehmonxonalar, mehmon uylari, bozor, restoran, avtoturargoh va boshqa xizmat ko'rsatish shoxobchalari qurildi. Natijada tog' qo'ynidagi majmuaning sayyohlik salohiyati karrasiga ortdi.

Ayni paytda yana 130 dan ortiq loyihada ish qizg'in bormoqda. Ularning 5 tasi

zamonaviy mehmonxonalar, 80 tasi mehmon uyi,

7 tasi bungalolar, 6 tasi madaniy hordiq chiqarish va sport inshootlari. Yaqin kelajakda 25 ta restoran, kafe, do'kon va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari hamda 3 ta ziplayn qad rostlaydi.

— Hududda turli loyihalar ishtirokchisi bo'lgan ishilarmonlar ham qo'llab-quvvatlayapti, — deydi tadbirkor Toshmurod Mirzayev. — Xususan, kredit ajratilishiga yordam berilyapti. Evaziga ishimiz unumi oshib, zarur infratuzilmalar yaratyapmiz. Masalan, shu kunlarda barpo etilayotgan savdo shoxobchalari, restoranlar va ko'ngilochar obyektlarga ehtidigan 4 kilometr dan ortiq yo'l qurilishi, ichimlik suv tarmog'i, kanalizatsiya tizimini tortish borasidagi ishlarimiz jadal kechmoqda.

Qishloqda xalqaro standartlar asosida barpo etilgan zamonaviy dor yo'li



Sangardakning yangi ramziga aylangan Farovonlik xaritasi. Bu loyiha sayyohlarga tog'lar uzra parvoz qilgandek noyob hissiyot baxsh etadi. Qolaversa, dor yo'li Sangardakning qadim va betakror sharsharalarini yaqindan ko'rib, go'zalligini his qilish imkonini ham beradi. Dor yo'li orqali yuqoriga ko'tarilar ekansiz, yastangan yashil vodiylar, Sangardak

sharsharasi tomon oqayotgan oqim va osmon bilan tutashgandek tuyulgan tog' manzarasi sizni butunlay boshqa olamga olib kiradi.

Hisor tog' tizmasi etagida, dengiz sathidan 3000 metr balandlikda joylashgan bu sharshara 150 metr balandlikdan otilib tushadi. Mahalliy aholining aytishicha, "Sangardak" so'zi "toshlar bilan o'ralgan

joy" degan ma'noni anglatadi. Sharshara yaqinidagi Sangardak qishlog'i ham bu tabiat mo'jizasining ajralmas qismidir. Sayyohlikka qaratilgan e'tibor sabab Sangardak turizm qishlog'i shuhratli tiklandi. Bugun bu yer mamlakatimizning turli hududidan kelgan yurtdoshlarimiz bilan gavjum. Ular maftunkor tabiat qo'ynida betakror go'zallikni, "O'zbekistonning Niagarasi" deb ta'riflanadigan Sangardak sharsharasini baland tog' cho'qqilaridan tomosha qilib, zavq olmoqda.

— Har yili bahor va yozda Sangardakka kelib, bir necha kun hordiq chiqarib qaytaman. Keyingi yillarda bu yerga turli davlatlardan ham sayyohlar kela boshladi. Ular bilan suhbatlashsangiz, yurtimiz tinchligi, sayohat qilishga arziydigan manzillari ko'pligini aytdi. Bundan ko'nglim tog'dek yuksaladi, — deydi mehnat faxriysi Tursunpo'lat Mirzayev.

Ushbu majmua tufayli Sariosiyo tumanida xizmat ko'rsatish salmog'i va sifati oshib, aholi bandligi ta'minlanmoqda. Xususan, tog'li go'shadagi turizm markazi sabab 2000 dan ortiq yangi ish o'rni ochiladi. Rejaga ko'ra, loyiha to'liq ishga tushirilgach, Sangardakda kambag'al oila qolmaydi.

Sarvar TO'RAYEV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy